


TUYCHIYEVA I.A., KAMALOV E.M., VAXOBOVA Z.I.

**BINOLAR VA INSHOOTLAR  
DAVLAT KADASTRINI  
YURITISHNI GAT TEXNOLOGIYALARI  
ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH  
(Pskent tumani misolida)**



ISBN 978-9943-9524-0-9



9 789943 952409

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN  
VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TUYCHIYEVA I.A., KAMALOV E.M., VAXOBOVA Z.I.

**BINOLAR VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRINI  
YURITISHNI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA  
TAKOMILLASHTIRISH**  
(Pskent tumani misolida)

**Monografiya**

**«ILM ZIYO ZAKOVAT»  
TOSHKENT - 2024**

UDK: 394.376(22.25:12)

BBK: 82.053.00

F 677

**Tuychiyeva I.A., Kamalov E.M., Vaxobova Z.I.**

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish. (Pskent tumani misolida) [Monografiya] – T.: “Ilm ziyo zakovat”, 2024, 120 b.

Ushbu monografiya “Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish” (Pskent tumani misolida) mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasini yoritishga bag‘ishlangan. Izlanish obyekti sifatida Toshkent viloyati Pskent tumanidagi binolar va inshootlar kadastrini yuritishni GAT texnologiyalaridan foydalanish orqali, ish samaradorligi va aniqligini oshirishga yo‘naltirilgan. Izlanish predmeti sifatida esa shu hududning binolar va inshootlari kadastrini yuritishda zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda, aerokosmik metodlar va zamonaviy GAT dasturlari, axborot tizimlaridan foydalnishga yo‘naltirilgan.

#### **Taqrizchilar:**

Axrorov J.D. – Davlat kadastrlar palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i  
Kutumova G.S. – Toshkent davlat texnika universiteti dotsenti

**ISBN 978-9943-9524-0-9**

© Tuychiyeva I.A., Kamalov E.M., Vaxobova Z.I. 2024 y.  
© «ilm ziyo zakovat» 2024 y.

#### **KIRISH**

Yer masalasi qadim - qadimdan eng dolzarb masala hisoblanadi. Chunki yer insoniyatning boshpanasi, yashashi uchun iqtisodiy asos va vosita, hamda ekologik tizimlarda turuvchi tabiatning ajralmas bo‘lagidir. Respublikamizda yer munosabatlarini tartibga solishning bosh yo‘nalish va to moyillarini belgilovchi eng muhim qonuniy hujjat O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi»dir. /2/

Monografiyaning avvalida mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarni ko‘rib chiqamiz.

#### **Kadastr o‘zi nima?**

Kadastr so‘zi yunoncha “katastichon” so‘zidan fransuz tiliga “kadastre” shaklida o‘tgan bo‘lib, o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinsa varaq, mol-mulk daftari yoki mulkiy daftar ma’nosini bildiradi. Bu so‘z ko‘pgina boshqa atamalar kabi vaqt o‘tishi bilan o‘zining ilk bor ko‘zda tutilgan mazmuniga unchalik ham to‘g‘ri kelmaydi. Hozirgi kunda kadastr deganda ko‘chmas mulk haqida keng qamrovli, ancha murakkab tushuncha nazarda tutiladi.

Manbalarda keltirilishicha, kadastr ishlari qadimdan paydo bo‘lgan bo‘lib, asosan yerlarni hisobga olish maqsadida - yer uchastkalarining chegaralarini, yer maydonlarining hajmini belgilash tarzida amalga oshirilgan.

#### **Davlat kadastrlari tushunchasi**

Davlat kadastro - Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastro yuritiladigan tabiiy, xo‘jalik yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma’lumotlar va hujjatlar tizimidan iborat bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan kundan boshlab barcha sohalar kabi “Geodeziya, kartografiya va kadastr” sohalari ham rivojlana boshladи. Hozirda olib borilayotgan ilmiy va amaliy ishlarni yanada takomillashtirish maqsadida sohaga doir yangi texnika va texnologiyalarni amaliyatga tatbiq qilishga katta ahamiyat berilmoqda.

#### **Mavzuning dolzarbligi**

Bugungi kunda mamlakatimizda zamonaviy metodlar va texnologiyalar yordamida binolar va inshootlar kadastrini yuritishni takomillashtirish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy geografik axborot tizimini tashkil etish" investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 25.09.2013 yildagi PQ-2045-son qaroriga asosan "Sun'iy yo'ldosh geodeziya tarmog'i, davlat kadastro va ko'chmas mulkni ro'yxatga olishning yagona kompyuterlashtirilgan tizimini yaratish"/3/ni nazarda tutgan holda O'zbekiston Respublikasining Milliy geografik axborot tizimini «Elektron hukumat» tizimining tarkibiy qismi sifatida shakllantirish hamda shu asosda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilish, respublika hududlarini kompleks rivojlantirish uchun zarur axborot - resurs bazasini ta'minlash belgilab qo'yilgan. Bu borada binolar va inshootlar kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari orqali takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Monografiya obyekti hisoblangan Toshkent viloyati Pskent tumanidagi binolar va inshootlar kadastrini sun'iy yo'ldosh geodeziya tarmog'i, ko'chmas mulkni ro'yxatga olishning yagona kompyuterlashtirilgan tizimini yaratishni takomillashtirish hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biri bo'lib kelmoqda.

#### **Muammoning o'r ganiganligi**

Davlat kadastrlari geoma'lumotlar bazasini shakllantirishning nazariy va amaliy, uslubiy asoslarini yaratish yuzasidan chet el olimlaridan - S. Akuna, A. Agustin, B. Munxbaatar, Li Jey, O. Adevale, R. Bennett va boshqalar tadqiq etishgan. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlarida: P. A. Kostichev, R. Vilyams, A. G. Doyarenko, N. A. Kachinskiy, I. N. Antipov, S. V. Astapov, A. V. Lebedev, P. V. Vershinin, A. F. Tyulin, A. A. Rode, S. I. Dolgov, I. B. Revut, N. Rijov va boshqa olimlarning ilmiy asarlarida geoaxborot tizimida yer hisobini yuritishning nazariy va uslubiy asoslarini yoritilgan bo'lsa, jarayonlarni avtomatlashtirishning nazariy va uslubiy asoslarini esa K. M. Melixov, S. V. Kozmenkova, S. V. Kasyanov, V. I. Kusov, A. L. Ipinin, Yu. V. Ryabov, E. V. Belorusseva, M. E. Bukovskiy, A. S. Sizovlar tadqiq qilishgan.

O'zbekistonda kadastr tizimini shakllantirish A. A. Abdua zizov,

A. A. Samborskiy, B. T. Qurbonov, I. A. Tuychiyeva, M. M. Muxitdinov, E. Yu. Safarov, S. Avezbayev, Q. Raxmonov, S. S. Sayyidqosimov, I. I. Ixlosov, D. O. Jo'raqulov, I. M. Musayev, O. R. Allanazarov, S. N. Abduraxmonov, R. Q. Oymatov, A. N. Inamov va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq etilgan.

#### **Monografiya mavzusining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi**

Mazkur ish Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Marksheyderlik ishi va geodeziya" kafedrasidagi "Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish" (Pskent tuman misolida) ilmiy tadqiqot ishlari mavzusi doirasida bajarilgan.

#### **Ishning maqsadi**

Monografiyada olib borilgan tadqiqot ishining maqsadi - bugungi kunda mayjud bo'lgan ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda respublikamizda mayjud binolar va inshootlar kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

#### **Tadqiqotning vazifalari**

Ilmiy tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqqan holda, monografiya ishining oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

\*Aviatsiya kosmik vositalari yordamida Toshkent viloyati Pskent tumanı hududlaridagi binolar va inshootlarni tadqiq etish va ularning kadastrini yuritishda GAT texnologiyalari orqali takomillashtirishning nazariy va uslubiy masalalarini, shuningdek huquqiy manbalarini yoritish;

\*Tadqiqot obyektining umumiyligi holatini tahlil qilish asosida o'r ganish;

\*Ma'muriy tumanlarda bino va inshootlarni tadqiq etish va uning monitoringini olib borishning mayjud holatini o'r ganish;

\*Aviatsiya kosmik vositalari yordamida Toshkent viloyati Pskent tumanidagi hududlaridagi binolar va inshootlar kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari orqali takomillashtirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

#### **Tadqiqot obyekti va predmeti**

Tadqiqot obyekti bo‘lib, Toshkent viloyati Pskent tumanidagi binolar va inshootlarni tadqiq etish va ushbu davlat kadastrini yuritishda zamonaviy usullardan foydalanish. Preddmeti sifatida esa, aviatsiya kosmik vositalari yordamida Pskent tumanidagi bino va inshootlarning kadastrini yuritishning bugungi kunda amalda bo‘lgan usullari va tartibini yoritish va faollashtirish.

#### **Tadqiqot metodlari**

Monografiya A. A. Samborskiy, B. T. Qurbonov, E. Yu. Safarov, O. R. Allanazarov va A. P. Pardaboyev, I. A. Tuychiyevalar tomonidan davlat kadastrlarini yuritish borasida olib borilgan tadqiqotlari, kartografik hamda aerokosmik metodlar hamda zamonaviy GAT dasturlari uslubiyatiga asoslanadi.

#### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi**

Tadqiqotning ilmiy maqsadi shundan iboratki, masofadan turib olingan ma'lumotlar bilan bir qatorda zamonaviy kartografik va geodezik usullarni qo'llash, binolar va inshootlar kadastro ma'lumotlarini tuzish va tizimlashtirishda zamonaviy GAT oilasiga mansub ArcGis dasturiy ta'minotining - UZKAD axborot tizimi va boshqa dasturlardan foydalanish orqali ishning samaradorlik darajasini oshirish va takomillashtirish hisoblanadi.

#### **Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati**

Tumandagi binolar va inshootlar kadastrini yuritish GAT texnologiyalari orqali takomillashtirib, kadastr sohasi vakillari hamda kadastr xizmatidan foydalanuvchi yuridik va jismoniy shaxslarga qulaylik yaratish.

#### **Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi**

Tadqiqot mavzusi bo'yicha 2ta maqola xalqaro ilmiy texnik va ilmiy texnik anjuman materiallarida nashr etilgan:

1. Tuychiyeva I. A., Pardaboyev A. P., Vaxobova Z. I., Nurmamatov Sh. Sh. "Qishloq xo'jaligi yerlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish haqida" – Xalqaro ilmiy-texnik anjuman " yer qa'ridan oqilona va bexatar foydalanishning raqamli transformatsiyalashdagi XXI asr tavakkallari, qiyinchilik va muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-texnik anjuman materialari, Toshkent davlat texnika universiteti, - Toshkent., 2022 yil. 21 may. 120 -122 betlar.

2. Tuychiyeva I. A., Pardaboyev A.P., Mirsaidov M. X., Vaxobova Z.I."Zamonaviy geodezik usullar orqali Musamuxammedov nomli massiv hududida joylashgan yer resurslari monitoringini aerokosmik usullar yordamida yuritishni takomillashtirish". – yer resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish va davlat kadastrlari munosabatlarini takomillashtirishda ilm-fan yutuqlari hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etishning dolzarb muammolari" mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman materialari, Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti filiali, - Samarqand, 2023 yil. 18-19 aprel, 620 - 625 betlar.

#### **Monografiyaning tuzilishi va tarkibi**

Monografiya quyidagilarni o‘z ichiga oladi: kirish, umumiyligini qism, nazariy qism va olingan natijalar kabi uchta bob, shuningdek, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati. 1-bob Davlat kadastrlarini yaratish va yuritish borasidagi umumiyligini ma'lumotlarni; 2-bob Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish bo‘yicha mavjud dasturlarni o‘rganish va tahlil qilishni; 3-bob Binolar va inshootlar davlat kadastrini GAT texnologiyalari asosida takomillashtirishni o‘z ichiga olgan holda, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

## Ibob. DAVLAT KADASTRLARINI YARATISH VA YURITISH

### 1.1. Davlat kadastrolarini yaratish va yuritish bo'yicha me'yoriy - huquqiy asoslar

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy vazirlar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.<sup>4)</sup> (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 55- modda)

Yer umummilliy boylikdir, O'zbekiston Respublikasi xalqi hayoti, faoliyat va farovonligining asosi sifatida undan oqilona foydalanish zarur va u davlat tomonidan muhofaza qilinadi. Yer to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari hozirgi va kelajak avlodlarning manfaatlarini ko'zlab yerdan ilmiy asoslangan tarzda, oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni, tuproq unumdarligini tiklash va oshirishni, tabiiy muhitni asrash va yaxshilashni, xo'jalik yuritishning barcha shakllarini teng huquqlilik asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratishni, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini himoya qilishni ta'minlash maqsadida yer munosabatlarini tartibga solishdan, shuningdek bu sohada qonuniylikni mustahkamlashdan, shu jumladan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishdan iborat. (O'zbekiston Respublikasi yer Kodeksi 1- modda) /2/

O'zbekistonning asosiy qonuni Konstitutsiyada yerlarga nisbatan mulk huquqi masalasini ularni umummilliy boylik deb tan olish yo'li bilan hal etgan. Yer uchastkalari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (83 modda)da ko'chmas mol - mulk turlari qatoriga kiritilgan .<sup>4)</sup> Yerni bir joyda ko'chmas mulk, boshqa joyda esa bizni o'rab turgan tabiiy muhitning tarkibiy qismi deb atash mumkin. Bu esa yerlarni ham ekologik, ham iqtisodiy belgilari mavjudligini anglatadi. Yer bir vaqtning o'zida ham tabiiy obyekt, ham mulk bo'lib qolaveradi va uni atrof-muhitdan ajratib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi yerga nisbatan mulk huquqi O'zbekiston Respublikasining yer kodeksi<sup>2</sup>da, Fuqarolik kodeksi<sup>5</sup>da, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"<sup>6</sup>gi, va "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"<sup>7</sup>gi Qonunlarda belgilanagan. Mulk huquqi yerlar kimga tegishliligini va mulkdorlarning tabiiy resurslarga nisbatan vakolatlarini

anglatadi. Yerga nisbatan mulk huquqi unga egalik qilish, foydalanish hamda tasarruf etish jarayonlarida namoyon bo'ladi. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi<sup>5</sup>ning 214 - moddasiga muvofiq yerlar respublika mulki hisoblanadi Fuqarolik kodeksi<sup>5</sup>ning 214-moddasi ikkinchi qismiga asosan respublika mulki bo'lgan mol - mulkni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Hukumati yoki ular maxsus vakil qilgan organlar, agar qonunda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tasarruf qiladilar. Yerlarga nibatan mulkchilik masalasi yer kodeksi<sup>2</sup>ning 16 va 18-moddalarida, "O'zbekiston Respublikasida mulkchilik to'g'risida"gi Qonun<sup>6</sup>ning 19-moddasida, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun<sup>7</sup>ning 5-moddasida yoritilgan. Eng muhim boyligimiz bo'lgan yer qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning asosiy vositasi va xalq xo'jaligi barcha tarmoqlarini rivojlantirishning makoniy bazisi hisoblanadi. Yer shunday xususiyatga egaki, to'g'ri foydalanilsa, u boshqa ishlab chiqarish vositalariga o'xshab eskirmaydi, aksincha, hosildorligi oshib boradi. Yer hisobotining umumiyligi ahamiyati shundan iboratki, bunda mavjud yer kimga tegishliliği, ya'ni uning egasi kimligi aniqlanadi. Shuning uchun ham yer hisobotida yerdan foydalanuvchi kimligi va yer uchastkasidan nima maqsadda foydalanishi, albatta, ko'rsatiladi. Yer hisoboti xalq xo'jaligini rivojlantirish rejasini tuzishda, birinchi navbatda, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularga bo'lgan chtiyojlarni aniqlashda katta ahamiyatga ega.

O'zbekiston yer fondi undan foydalanishiga ko'ra 8 turga bo'linadi:

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar - qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo'ljallangan yerlar. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar sug'oriladigan va sug'orilmaydigan (lalmikor) yerlar, haydaladigan yerlar, pichanzorlar, yaylovlar, ko'p yillik mevali dov - daraxtlar va tokzorlar egallagan yerlarga bo'linadi;
2. Aholi punktlarining (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlarining) yerlari - shaharlar va posyolkalar, shuningdek qishloq aholi punktlari chegarasi doirasidagi yerlar;

- Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar - ko'rsatilgan maqsadlarda foydalanish uchun yuridik shaxslarga berilgan yerlar;
- Tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariga mo'ljallangan yerlar - muhofaza etiladigan tabiiy hududlar egallagan, ustuvor ekologik, ilmiy, madaniy, estetik, rekreatsiya va sanitariya - sog'lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar;
- Tarixiy - madaniy ahamiyatga molik yerlar - moddiy madaniy meros obyektlari joylashgan yerlar;
- O'rmon fondi yerlari - o'rmon bilan qoplangan, shuningdek o'rmon bilan qoplanmagan bo'lsa ham, o'rmon xo'jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yerlar;
- Suv fondi yerlari - suv obyektlari, suv xo'jaligi inshootlari egallagan yerlar va suv obyektlarining qirg'oqlari bo'ylab ajratilgan mintaqadagi yerlar;
- Zaxira yerlar.

Quyida rasmida viloyatlar kesimida 2022-yil 20-aprel holatiga yer fondi hisobotidan ma'lumotlar va respublika miqyosidagi jami yer maydoni va yer fondi toifalarini to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi hisoboti										
ID	HUDUD NOMI	JAMI	QISHLOQ XIZ'DALIGIGA MO'LJALLANGAN YERLAR	AHOLI PUNKTLARI YERLARI	SANAYI TRANSPORT, ALQOQ MUJODDAHA VA GAZETIRMA YERLARI	TABIATNI MUHOFAZA QILISHGA MO'LJALLANGAN YERLAR	TARIXIY-MADANIY AHAMIYATGA MOLIK YERLAR	D'IMON FONDI YERLARI	SUV FONDI YERLARI	ZAXIRA YERLARI
1	O'rta O'seziston Respublikasi	16556	5407,1	59,6	178,2	631,9	44775	65145	51,1	2753,9
2	Andijon	4303	360,9	442,5	44762	0,6	0,1	11	19	44567
3	Buxoro	41831	8441,1	44749	88,8	0,1	0,5	530,6	66,4	0,1
4	Jizzax	21179	1371,1	44830	44739	70,3	44505	318,2	512,1	44597
5	Qashqadaryo	22550	23214	44693	67,4	0	44714	412,1	27	44776
6	Nukus	16943	20961	44656	57	5	0,6	393,6	146,1	14
7	Namangan	7433	480,8	44667	57,5	0,3	44683	152,4	44515	44593
8	Samarqand	16778	1473,7	44698	85,5	0,1	0,4	56,2	44445	44764
9	Surhondaryo	20999	1337,3	44662	111,1	0,2	0,5	93,3	24	102,4
10	Qiroz	4276	371,1	0	44662	0,1	0	44871	43799	0,1
11	Turkmen viloyati	1515	760	39,4	81,8	0,4	44805	572	44521	38,6
12	Fargona	6753	535,6	44789	50,8	0,4	0	44607	44701	36
13	Xorazm	6052	438,1	44736	44791	44763	0,1	28,4	44674	44647
14	Tojikistan shahar	428	4556	12	44617	0,3	0,5	0	44621	0
15	Jami	44892,4	271485	2241	8796	931,6	44728	12057,3	2271	9009,6

1.1.1-rasm. O'zbekiston Respublikasi yer fondi hisoboti (20.04.2022 y)



1.1.2-rasm. Respublikadagi jami yer maydoni va yer fondi toifalarini to'g'risida ma'lumot

Respublika yer fondi foydalanishi va turlari bo'yicha doim o'zgarib turadi. Yerlarni o'zlashtirish natijasida lalmi, yaroqsiz yerlar sug'orilib, ekiladigan yer hisobiga o'tishi yoki qishloq xo'jaligidan boshqa maqsadlar uchun turli qurilishlarga ajratib berilishi, erroziya ta'sirida va boshqa sabablarga ko'ra ekin ekiladigan yerlar hisobidan chiqishi kabi hollar sodir bo'ladi. Bunday o'zgarishlarni aniq hisobga olib borish ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan berilgan ko'rsatma asosida yuritiladi. Yer hisobi (balansi) har yili 1- yanvargacha yerga egalik qiluvchi va yerdan foydalanuvchi xo'jaliklar, tashkilotlar, tumanlar va viloyatlar bo'yicha olib boriladi. Bu hujjatlardan qishloq ho'jalik ekinlari turlarini joylashtirishda, olinadigan hosil taqsimotida va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Yerlar asosiy foydalanish maqsadiga qarab yer fondi toifalariga bo'linadi. Yerlardan asosiy foydalanish maqsadi – yer kadastr hujjatlarida aks ettiriladigan aniq maqsadlarni ko'zlab foydalanishning qonunchilikda belgilangan tartibida ish yuritishdir.

Yerlarni yer fondining bir toifasidan boshqasiga o'tkazish yerlardan asosiy foydalanish maqsadi o'zgargan taqdirda amalga oshiriladi. Yerlarni yer fondi toifalariga bo'lish va bir toifadan boshqasiga o'tkazish O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi, bunda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerbarni - yer fondining boshqa toifasiga o‘tkazish mustasno.

Sug‘orilmaydigan yerbarni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerbarni fondining boshqa toifasiga o‘tkazish O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan amalga oshiriladi, sug‘oriladigan yerbarni qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerbarni fondining boshqa toifasiga yoki sug‘orilmaydigan yerbarni toifasiga o‘tkazish esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Yer fondining toifasi yer uchastkalarini berish huquqiga ega bo‘lgan organlar tomonidan qabul qilinadigan yer uchastkalarini berish to‘g‘risidagi qarorlarda, ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestridan elektron ko‘chirmalarda, yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi shartnomalarda, boshqa hujjalarda, davlat yer kadastri hujjalarda ko‘rsatiladi. Yerbarni bir toifadan boshqasiga o‘tkazishning belgilangan tartibini buzish bunday o‘tkazish faktlarini g‘ayriqonuniy deb va ular asosida tuzilgan yer uchastkalariga doir bitimlarni haqiqiy emas deb topishga, shuningdek yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatiga olishni rad etishga asos bo‘ladi.

Davlat kadastrlarining faoliyati O‘zbekiston Respublikasining 15.12.2000 yildagi «Davlat kadastrlari to‘g‘risida»gi qonuni\8\ bilan tartibga solinadi. Davlat kadastri - Davlat kadastrlari yagona tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda u davlat kadastri yuritiladigan tabiiy, xo‘jalik obyekti yoki boshqa obyekt muayyan turining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to‘g‘risidagi yangilanib turiladigan ma‘lumotlar va hujjalalar tizimidan iborat bo‘ladi.

Davlat kadastrlarining yagona tizimi O‘zbekiston Respublikasi Milliy geografik axborot tizimida (bundan buyon matnda Milliy geografik axborot tizimi deb yuritiladi) shakllantiriladi hamda O‘zbekiston Respublikasi va uning ayrim hududlari tabiiy - iqtisodiy salohiyatining yagona umum davlat hisobi yuritilishini, baholanishini ta‘minlash uchun mo‘ljallangan. Davlat kadastrlarining axborotini Milliy geografik axborot tizimiga taqdim etish axborot xavfsizligi talablariga rioya etilgan holda, faqat telekommunikatsiya tarmoqlari orqali amalga oshiriladi. Bunda

davlat sirlari jumlasiga kiritilgan davlat kadastrlarining axborotini taqdim etish davlat sirlarini saqlash to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi. Davlat kadastrlarining yagona tizimiga kiritish uchun davlat kadastrlari axborotini taqdim etish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga quyidagilar kiradi:

- \*davlat yer kadastri;
- \*konlari, foydali qazilma nishonalari va texnogen hosilalar davlat kadastri;
- \*davlat suv kadastri;
- \* davlat o‘rmon kadastri;
- \* o‘simliklar dunyosi obyektlari davlat kadastri;
- \* hayvonot dunyosi davlat kadastri;
- \* muhofaza etiladigan tabiiy hududlar davlat kadastri;
- \* binolar va inshootlar davlat kadastri;
- \*davlat shaharsozlik kadastri;
- \* gidrotexnika inshootlari davlat kadastri;
- \*madaniy meros obyektlari davlat kadastri;
- \*avtomobil yo‘llari davlat kadastri;
- \*temir yo‘llar davlat kadastri;
- \*transport quvurlari davlat kadastri;
- \*aloqa obyektlari davlat kadastri;
- \*energetika obyektlari davlat kadastri;
- \*chiqindilarni ko‘mib tashlash va utilashtirish joylari davlat kadastri;
- \*tabiiy xavfi yuqori bo‘lgan tegralar davlat kadastri;
- \*texnogen xavfi yuqori bo‘lgan tegralar davlat kadastri;
- \*kartografiya - geodeziya davlat kadastri;
- \*hududlar davlat kadastri.

Davlat kadastrlari yagona tizimiga qonun bilan belgilanadigan boshqa davlat kadastrlari ham kirishi mumkin.

Yer, konlar, foydali qazilma nishonalari va texnogen hosilalar, suvlari, o‘rmonlar, o‘simliklar va hayvonot dunyosi, muhofaza etiladigan tabiiy hududlar,

tabiiy va texnogen xavfi yuqori bo'lgan tegralar, ishlab chiqarish va iste'mol chiqindilarini ko'mib tashlash va utilashtirish joylari, binolar va inshootlar, geodeziya punktlari, avtomobil yo'llari va temir yo'llar, transport va muhandislik kommunikatsiyalari davlat kadastrlarining obyektlari hisoblanadi.

Davlat kadastrlarini yuritishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- \*kadastr obyektlarining har bir turi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining butun hududini to'la qamrab olish;
- \* fazoviy koordinatalarning yagona tizimini qo'llash;
- \* kadastrga doir axborotni shakllantirish uslubiyatining yagonaligi;
- \* kadastrga doir axborotning aniqligi;
- \* kadastrga doir axborotning hamma uchun ochiqligi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlari:

- \*davlat kadastrlarining yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, moliyalashtirish va investitsiya masalalarini hal qiladi;
- \*davlat kadastrlarini yagona tizimini Milliy geografik axborot tizimida yuritish tartibini belgilaydi;
- \*davlat kadastrlarining yagona tizimiga kiritish uchun davlat kadastrlari axborotini taqdim etish tartibini belgilaydi;
- \*kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastrga doir axborotni foydalanuvchilarga taqdim etish tartibini belgilaydi;
- \*qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvidagi Kadastr agentligi Milliy geografik axborot tizimini va davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolati organ hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvidagi Kadastr agentligining davlat kadastrlarini yuritishdagi vakolatlari:

- \*vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- \*Davlat kadastrlari yagona tizimini - Milliy geografik axborot tizimida yuritadi;
- \*vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarini tegishli davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografik materiallari bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;
- \*davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;
- \*mutaxassislar tayyorlash va malakasini oshirish ishlarini tashkil etadi;
- \*qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

Davlat kadastrlarini yuritishga tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat kadastrlarini yuritishga quyidagilar kiradi:

- \*kadastr obyektlariga bo'lgan mulk huquqi va boshqa huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- \*kadastr obyektlarining miqdor va sifat tavsiflarini hisobga olish;
- \*kadastr obyektlarini sifat va qiymat jihatidan baholash;
- \*kadastrga doir axborotni tizimga solish, saqlash va yangilab borish;
- \*kadastr obyektlarining holati haqida hisobotlar tuzish;
- \*Davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritish uchun tegishli axborotni taqdim etish;
- \*foydalanuvchilarni qonunchilikda belgilangan tartibda kadastrga doir axborot bilan ta'minlash.

Kadastr obyektlarining mulkdorlari hamda kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlariga kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va bahosi to'g'risida, shuningdek ularning holatidagi joriy o'zgarishlar haqida axborot taqdim etishlari shart.

Davlat kadastrlarini yuritish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. Davlat kadastrlari yuritilishini moliyalashtirish O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hamda qonunchilikda taqilangan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk hisoblangan kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlar qonunchilikda belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. Kadastr obyektlariga bo'lgan

huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish yuridik va jismoniy shaxslarning kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlari davlat tomonidan e'tirof etilishi hamda tasdiqlanishining yuridik hujjatidir. Kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish hujjatlar bilan tasdiqlangan axborotni davlat reyestrlariga kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Ko'chmas mulk hisoblangan kadastr obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish kadastr obyektlarining barcha mulkdorlari va kadastr obyektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir. Kadastr obyektlarini hisobga olish vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralarning tegishli bo'linmalari tomonidan kadastr obyektlarining chegaralari doirasida, shuningdek aholi punktlari, tumanlar, mintaqalar, tabiiy va iqtisodiy tegralar hamda butun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha ularning amaldagi holati va ulardan foydalanilishiga ko'ra olib boriladi.

Kadastr obyektiga bo'lgan mulk huquqini va boshqa huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar, obyektning kadastr yig'majildi, kadastr xaritasi (plani), kadastr kitobi, kadastr obyektlarining holati haqidagi hisobot kadastr hujjatlarining asosiy turlaridir.

\*Kadastr yig'majildi kadastr obyektiga bo'lgan huquqni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'ladigan kadastr obyektni kadastr suratiga olish, texnik inventarizatsiya qilish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlar, materiallari va ma'lumotlaridan iborat bo'ladi.

\*Kadastr xaritasi (plani) kadastr obyektlari joylashgan yerni, ularning chegaralari, muhofaza tegra(zona)lari, baholash, miqdor va sifat tavsiflarini aks ettiruvchi grafik chizma hujjati bo'lib, u qog'ozda, magnit va boshqa vositalarda tuziladi.

\*Kadastr kitobi kadastr obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish va hisobga olishning asosiy hujjati hisoblanib, u kadastr obyektlarining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor hamda sifat jihatdan tavsiflari va bahosi haqidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi.

\*Kadastr obyektlarining holati to'g'risidagi hisobot davlat kadastrining har bir turi bo'yicha belgilangan tartibda tuziladi hamda kadastr obyektlarining alohida hududlar

va butun O'zbekiston Respublikasi bo'yicha miqdor va sifat holati, bahosi haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

## 1.2. Davlat yer kadastrini yuritish

Yer kadastr "Davlat yer kadastr to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining qonuni /8/ (28.08.1998-yildagi 666 - I- son) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.06.2021 yildagi 389- son qarori/9/ning 1- ilovasi, yuqorida qayd etilgan qonunga va qarorga oid me'yoriy hujjatlar, yo'rinnoma va uslubiy ko'rsatmalar asosida yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarning kafolatlarini ta'minlash, yerlardan oqilonqa foydalanish, ularni qayta tiklash va muhofaza qilish uchun kadastr ma'lumotlaridan foydalanishning huquqiy asoslarini belgilashga qaratilgan davlat tadbirlar tizimi hisoblanadi. Davlat yer kadastr yerlarni hisobga olish, yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar kafolatlanishini ta'minlash, yerning tabiiy xossalari, yerdan foydalanishni har tomonlama o'rganish va baholash maqsadida yuritiladi. Davlat yer kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimining asosiy tarkibiy qismi hisoblanib, yerlarning tabiiy, xo'jalik, huquqiy rejimi, toifalari, sifat xususiyatlari va qiymati, yer uchastkalarining o'rni va o'lchamlari, ularning yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarrachilar va mulkdorlar o'rtasidagi taqsimoti to'g'risidagi ma'lumotlar hamda hujjatlar tizimidan iboratdir.

O'zbekiston Respublikasining yer fondi davlat yer kadastr obyekti hisoblanadi.


Yer kadastr ma'lumotlarini ishlab chiqish texnologiyasini doimiy ravishda takomillashtirish, tizimlashtirish, saqlash, yangilash hamda foydalanuvchilarga yer kadastr to'g'risida ishonchli ma'lumotlar taqdim etish davlat yer kadastrining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Davlat yer kadastrini yuritishda aerokosmik suratga olish, topografik - geodezik, kartografik, tuproq, agrokimyoiy, geobotanik tadqiqotlar va boshqa tadqiqotlar hamda izlanishlar olib borish, yerlarning miqdor va sifat jihatidan hisobga olinishi va baholanishi, yuridik va jismoniy shaxslarning yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish orqali ta'minlanadi. Davlat yer kadastr yer

munosabatlarini tartibga solish maqsadida davlat organlari va tashkilotlarini, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarni yer to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash, yarlarni muhofaza qilish, yer tuzilishini tashkil etish, yer uchun haq to'lash miqdorlarini asoslash, xo'jalik faoliyatini baholash uchun mo'ljallangan.

Quyidagilar davlat yer kadastrining tarkibiy qismlari hisoblanadi (1.2.1-rasm):

- \*yer uchastkalariga egalik qilish, ulardan foydalanish, ularga bo'lgan mulk yoki ijara huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, serviturlarni va ushbu huquqlarga doir boshqa cheklashlarni hisobga olish;
- \*yer miqdorini hisobga olish;
- \*yer sifatini hisobga olish (tuproq bonitetini aniqlash);
- \*yerni qiymat jihatidan baholash.



1.2.1-rasm. Davlat yer kadastrini yuritish tartibi

Ushbu ishlar Qishloq xo'jaligi Vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.  
Yer uchastkalarini ro'yxatga olish

Tuman yoki shahar hududida joylashgan yer uchastkalarini Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasining hududiy bo'linmalari mutaxassislari tomonidan yer Kadastri kitobiga qayd etish jarayonidir. Qayd etishda yer uchastkasi

to'g'risida jamiki ma'lumotlar, masalan, yer uchastkasi mulkdorining rasmiy ma'lumotlari, uchastka joylashgan manzil, qo'shni uchastkalarning yuridik nomlari, yer turlari, tuproq ball boniteti va hokazo ma'lumotlar yer Kadastri kitobida o'z aksini topadi.

Yerni iqtisodiy baholash

Yer uchastkasining tuproq unumдорлиги, suv manbalari, yo'l tizimi, texnika qurilmalari va ishchi kuchlarlari bilan ta'minlanganlik darajasi, aholi punktidan joylashish masofasi va shu kabi uchastkasidan foydalanishga bevosita ta'sir ko'rsatadigan omillarni qamrab oladigan murakkab jarayon hisoblanadi.

Tuproq bonitirovkasi

Yer uchastkasida tarqagan unumli tuproq qatlaming fiziologik hamda kimyoviy tarkibini, tuproq turi va holati, iqlim sharoiti va yer osti suvlarining joylashishi kabi bir qator omillarni o'zida jamlaydigan jarayondir.

Davlat yer kadastro O'zbekiston Respublikasi davlat kadastrlarining yagona tizimiga kiruvchi davlat va tarmoq tabiiy va iqtisodiy resurslari kadastrlarining asosidir.

Quyidagilar davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hisoblanadi (1.2.2-rasm):



1.2.2 – rasm. Davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari

- \*respublikaning butun hududini qamrab olish;
  - \*fazoviy koordinatlarning yagona tizimini (WGS- 84) qo'llash;
  - \*yer kadastriga doir ma'lumotlarni ishlab chiqish ushubining birligi va uzuksizligi;
  - \*yer kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi va tejamliligi.
- Davlat yer kadastr ma'lumotlari asosiy (birlamchi) va joriy turga bo'linadi.
- \*Birlamchi ro'yxatdan o'tkazish vaqtida olingen ma'lumotlar va davlat yer kadastrining birlamchi ma'lumotlarini tuzish asosiy ma'lumotlar hisoblanadi.
- \*Davlat yer kadastr ma'lumotlarini qayta ro'yxatdan o'tkazish va (yoki) o'zgartirish jarayonida olingen ma'lumotlar joriy ma'lumotlar hisoblanadi.
- Davlat yer kadastr Davlat kadastrlari yagona tizimi va boshqa davlat kadastrlarining monitoringini yuritish uchun fazoviy - huquqiy asos hisoblanadi.
- Davlat kadastrlari yagona tizimiga davlat yer kadastriga oid kiritiladigan ma'lumotlarning tarkibi O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'yusuvidagi Kadastr agentligi tomonidan ishlab chiqiladi hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi va Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan kelishiladi.
- Quyidagilar davlat yer kadastrining mazmunini tashkil etadi:
- \*yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish;
  - \*yer uchastkalarini elektron hisobga olish;
  - \*yerni qiymat jihatidan baholash;
  - \*yer kadastr ma'lumotlarini tizimlashtirish, saqlash, yangilash va manfaatdor shaxslarga belgilangan tartibda taqdim etish.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning vujudga kelishiga doir ma'lumotlar yer kadastr ma'lumotlarning birlamchi qismi hisoblanadi hamda mazkur yer uchastkasini hisobga olish, qiymatini aniqlash va huquqlarni ro'yxatga olishning asosini tashkil etadi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlarni birlamchi ( va qayta) davlat ro'yxatidan o'tkazishda yer uchastkasi va uning chegaralariga oid ma'lumotlar Davlat kadastrlari yagona tizimida aks ettirilgan holda amalga oshiriladi. Yer uchastkalariga bo'lgan huquqlar, ushbu huquqlarning vujudga kelishi, boshqa shaxsga o'tishi, cheklanishi va to'xtatilishi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkaziladi. Yer uchastkalarining chegaralarini belgilash

WGS - 84 koordinata tizimida kartografiya materialidan foydalangan holda, geodeziya usullari bilan joyning o'zida chegaralarning burilish nuqtalari katalogiga muvofiq, ularni chegara qoziqlari bilan mahkamlash orqali amalga oshiriladi. Natijalar Davlat Kadastrlari Yagona Tizimining yer kadastr qatlamida aks ettiriladi. Yer uchastkalarining umumiyl maydoni talab qilinadigan aniqlikda tahliliy, grafik - tahliliy yoki mexanik usullar bilan aniqlanadi. Yer uchastkasi to'g'risidagi ma'lumotlar avtomatlashtirilgan axborot tizimida yuritiladi. Joriy ro'yxatdan o'tkazish ma'lumotlarini shakllantirishda ro'yxatga oluvchi axborot tizimida yer uchastkalar egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarrachilar va mulkdorlarning huquqiy holati, shuningdek, yerning maydoni, chegaralari, undan foydalanish maqsadi va foydalanish rejimi bo'yicha yuz bergan o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi. Yer uchastkalarining umumiyl maydonini hisobga olish asosan geodeziya usullari bilan, yuqori aniqlikni talab etmaydigan hollarda esa kartometrik usullar bilan bajariladi. Ekin maydonlari bo'yicha yer miqdorini hisobga olish bir va undan ortiq konturlardan iborat bo'lgan asosiy yer kadastr birliklari - yer uchastkalar doirasida yuritiladi. Barcha toifadagi ekin maydonlari hisobga olinishi kerak. Qishloq xo'jaligi toifasidagi yer maydonlari yer turlari bo'yicha yer kadastr ma'lumotlari tarkibida alohida qatlama hisobga olinadi.

Davlat yer kadastrining alohida qatlami shaklida, yer sifatini hisobga olish quyidagilarni o'z ichiga oladi: tabiiy - qishloq xo'jaligi va yer kadastr bo'yicha rayonlashtirish, yer tasnifi, ularni ekologiya, texnologiya va shaharsozlik belgilari va boshqa belgililar bo'yicha tavsiflash, tuproq va yerni guruhlarga ajratish.

Yerlarning o'chami, joylashgan o'rni (koordinatalar katalogi bilan), toifasi va sifati holatiga oid qayd etiladigan ma'lumotlar yerni hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlarni tashkil etadi. Ma'muriy - hududiy darajaning oshishiga qarab, yerni hisobga olish to'g'risidagi ma'lumotlar uning ko'rsatkichlarining taqqoslanuvchanligiga rioya qilingan holda umumlashtiriladi.

Turli maqsadlarga mo'ljallangan yer uchastkalari holatini baholash yerlardan foydalanish samaradorligining hozirgi holati darajasini aniqlashga hamda kelajakda uni oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, asoslash, yer solig'i va boshqa to'lovlarini,

uning normativ bahosini hisoblab chiqarish, yerlardan oqilona va samarali foydalanishi rag'batlantirish uchun amalga oshiriladi.

Barcha toifadagi yerlarni baholash ishlari tizimli ravishda amaldagi holat va baholash ko'sratkichlari (yerlarning har bir toifasi uchun o'ziga xos bo'lgan) yordamida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.


Qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi maqsadlaridagi yerlar uchun ham tuproqning unumdorlik quvvati - tuproq boniteti bo'yicha qiyosiy baholash amalga oshiriladi.

Yerlarning qiymat bahosiga va tuproq bonitetiga doir ma'lumotlar yer bahosiga oid yer kadastro ma'lumotlarining alohida qatlamida tashkil etiladi.

Yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, hisobga olish va baholashga doir asosiy va joriy ma'lumotlar yer kadastro ma'lumotlari majmuuni tashkil etadi, ular har xil: alfavit - raqam (matn, jadval, koordinatlar va maydonlar ro'yxati) va grafik (reja, xarita, chizmalar) shakillarida qayd etiladi.

Davlat kadastrlari yagona tizimida davlat yer kadastro ma'lumotlari asosiy qatlam hisoblanib, tuman(shahar)ning ma'muriy-hududiy chegarasi doirasida yuritiladi. Har bir ma'muriy-hududiy birlik chegarasidagi barcha yer uchastkalarining chegaralari, ularning egalari, foydalanuvchilar, ijrarachilar va mulkdorlarining tarkibi, shuningdek, chegaralarda bo'lgan o'zgarishlar muntazam ravishda kiritib boriladi. Har bir ma'muriy - hududiy darajada axborot tizimi orqali taqdim etiladigan yer kadastriga doir ma'lumotlar tarkibi va shakli Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi. Yer kadastriga doir ma'lumotlarning ishonchliligi uchun davlat yer kadastrini yuritish vazifasi yuklangan vakolati organ mas'ul xodimlari, shuningdek, yer uchastkalari egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijrarachilar va mulkdorlar javob beradilar.

Yer ajratish va undan foydalanishda nazoratni kuchaytirish maqsadida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan bu masalada tuman hokimlarining vakolatlari cheklandi. (1.2.3-rasm)



1.2.3-rasm. Yer ajratish va undan foydalanishda nazoratni kuchaytirish.

### 1.3. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish

Kadastr - muayyan obektlar to'g'risida tartiblashtirilgan aniq va zaruriy ma'lumotlar majmui ro'yxati, reyestridir. Dastlab kadastr soliq solinadigan obyektlarning ro'yxati, ya'ni reyestriga nisbatan qo'llanilgan. Hozir ham tizimda shunday ro'yxat yuritiladi, ammo avvalgisidan farqli tarzda, undan soliq solinadigan emas, balki xususiy mol - mulk, yer maydonlari va jismoniy hamda yuridik shaxslarga qonunan tegishli bo'lgan har qanday turdag'i obyekt haqidagi ma'lumotlar joy oladi. Kadastr sohasi esa egalik huquqini qonuniylashtirish, ro'yxatga olish va hujjatlarni shakllantirish kabi jarayonlarning barini muvofiqlashtiradi.

Binolar va inshootlar davlat kadastr Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389- son qarori\10\ning 2- ilovasi asosida yuritiladi. Binolar va inshootlar davlat kadastr hududiy prinsip bo'yicha tashkil etiladi va obyektlarning huquqiy, xo'jalik va arxitektura - qurilish maqomi to'g'risidagi ma'lumotlar tizimini tashkil etadi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini binolar va inshootlar mulkdorlari va bu obyektlardan boshqa foydalanuvchilarning huquqlarini, shuningdek, binolar va inshootlarga egalik huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarning davlat ro'yxatidan o'tkazilishini ta'minlash uchun axborot tizimi yordamida raqamli shaklda davlat tilida yuritiladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini ma'lumotlari barcha davlat tashkilotlari, yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy yuridik kuchga egadir.

Kadastr hujjalari binolar va inshootlar bilan fuqarolik - huquqiy bitimlarni amalga oshirishda va boshqa yuridik harakatlarda huquqiy, iqtisodiy va texnik ma'lumotlari sifatida qabul qilinishi kerak. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish obyektlar to'g'risidagi kadastr ma'lumotlarini shakllantirishdagi ishonchli hujjalarni va boshqa ma'lumotlardan foydalanilgan holda amalga oshiriladi. Davlat kadastrlari yagona tizimini shakllantirish va yuritishni tashkil etish, shuningdek, binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlariiga umumiyligi rahbarlik qilish, ularni metodik jihatdan ta'minlash O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvdag'i Kadastr agentligi (keyingi o'rinnlarda - Kadastr agentligi) tomonidan amalga oshiriladi. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yurituvchi organlar kadastr hujjalarni va kadastr ma'lumotlarini ruxsatsiz olish va oshkor etishdan himoya qilinishini ta'minlashlari shart, ochiq ma'lumotlarni bundan mustasno. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo'yicha ishlari ko'chmas mulkka kadastr hujjalarni tayyorlaganlik, ularga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazganlik uchun to'lanadigan to'lovlar hamda qonunchilik hujjalari bilan taqilanganboshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi. Davlat mulki bo'lgan obyektlar bo'yicha binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish ishlari O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'larini hisobidan amalga oshiriladi.


O'zbekiston Respublikasi Prezidenti/11\ning 2022-yil 21-dekabrda "Yangi O'zbekiston ma'muriy islohotlarini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-269-son Farmoniga muvofiq Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligining tashkiliy bo'y sunuvdi o'zgartirilib, Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuviga o'tkazildi.

Geodeziya va kartografiya faoliyati sohasi, davlat kadastrini yuritish sohasi, ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish sohasi, davlat yer, kadastr va geodeziya nazoratini ta'minlash Agentlikning asosiy yo'naliishlari hisoblanadi. Bu sohada 8000 dan ortiq kishi ishlaydi. Davlat kadastrlari palatasi, Respublika aerogeodeziya markazi, davlat kartografiya - geodeziya jamg'armasi, "Kartografiya" davlat ilmiy ishlab chiqarish korxonasi, "Geoinnovatsiya markazi" DUK, "Kompyuterlashtirish va geoaxborot texnologiyalarini joriy etish va rivojlantirish markazi" DUK, Toshkent geodeziya va kartografiya kolleji kabi 7 ta idoraviy mansub tashkilot mavjud. Bundan tashqari, har bir mintaqada Agentlikning viloyat boshqarmalari mavjud.

Davlat xizmatlari haqida gapirganda, bugungi kunda Kadastr agentligi asosan 11 turdag'i davlat xizmatlarini taqdim etadi (1.3.1 -rasm):

- \* Ko'chmas mulk huquqlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- \* Ko'chmas mulk obyektlari uchun kadastr pasportini tayyorlash;
- \* Binolar va inshootlar ijerasi shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- \* Servitut shartnomalarini Davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- \* Ipoteika va ipoteka shartnomalarini davlat ro'yxatidan o'tkazish;
- \* Mulkda uy - joy borligi (yo'qligi) to'g'risida ma'lumot berish;
- \* Uy - joy maydoni haqida ma'lumot berish;
- \* Ko'chmas mulk obyektlarining manzillarini tayinlash, o'zgartirish va tugatish;
- \* geodeziya - kartografiya faoliyatini litsenziyalash;
- \* Bino va inshootlarni qurish (rekonstruksiya qilish) bilan tugallangan foydalanishga qabul qilish.
- \* Ko'chmas mulk haqida ma'lumot berish;

Yuqorida qayd etilgan barcha xizmatlar Davlat xizmatlari markazlari va yagona interaktiv davlat xizmatlari portalini (YaIDXP) orqali taqdim etiladi.



1.3.2-rasm. Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı (YalDXP)

**KADASTR AGENTLIGI**

**KADASTR AGENTLIGI**

**KO'CHMAS MULK OBYEKTLARIGA KADASTR PASPORTINI TAYYORLASH**

**BINO VA INSHOOTLAR IJARA SHARTNOMALARINI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH**

**SERVITUTLARNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH**

**KO'CHMAS MULKKA OID KADASTR MA'LUMOTLARINI TAQDIM ETISH**

**SHAHODATNOMACA EGA BO'LGAN KADASTR MUHANDISI TOMONIDAN TAYYORLANCAN KADASTR YIC'MAJILDICA ASOSAN KO'CHMAS MULKNI HISOBGA OЛИSH VA KADASTR PASPORTINI BERISH**

**XIZMATLARDAN FOYDALANISH DAVLAT XIZMATLARI MARKAZLARI, YAGONA DAVLAT XIZMATLARI PORTALI ORQALI YOKI NOTARIAL IDORALAR ORQALI AMALGA OSHIRILISHI MUMKIN**

**KADASTR AGENTLIGINING KO'RSATADIGAN XIZMAT TURLARI**

**KO'CHMAS MULK OBYEKTIGA BO'LGAN HUQUQLARNI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH**

**IPOTEKA VA IPOTEKA HAQIDAGI SHARTNOMALARINI DAVLAT RO'YXATIDAN O'TKAZISH**

**FUQAROLARNING NOMIDA SHAXSIY UY-JOYI BORLICI YOKI YO'QLIGI TO'GRISIDAGI MA'LUMOTNOMA OLISH**

**KO'CHMAS MULK OBYEKTLARIGA MANZILLAR BERISH, ULARNI O'ZGARTIRISH VA MAVJUDLIGINI BEKOR QILISH**

**QURILISHI (REKONSTRUKSIYASI) TUGALLANGAN BINO VA INSHOOTLARNI FOYDALANISHGA QABUL QILISH**

**my.BOV.UZ**

1.3.2-rasm. Kadastr agentligi ko'rsatadigan xizmat turlari.

Davlat kartografiya-geodeziya fondida 2023-yil i-chorakda amalga oshirilgan ishlar.		
Kartografiya va geodeziyaga oid material (ma'lumotlarni elektron ko'rinishga keltirish bo'yicha.		
Turli mashtablardagi topografik xarita (qog'oz shaklidagi)larni skaynerlash.	956 ta	
Turli mashtablardagi topografik reja (qog'oz shaklidagi)larni skaynerlash.	672 ta	
Tarixiy xaritalarni skaynerlash.	177 ta	
Turli yillardagi mikrofilmilarni skaynerlash.	2 300 ta	
Qog'oz shaklidagi xaritalar va rejalar kadastr otributlari.	324 ta	
Ortofotoplanlar (aero-fotosomka va kosmik-fotosomka) kadastr otributlari.	1 598 ta	
Nivellash punktlari kadastr otributlari.	47 ta	
Triangulyatsiya punktlari kadastr otributlari (yangilash).	1 295 ta	
Raqamli xaritalar kadastr otributlari.	217 ta	
Nivellash punktlari ma'lumotlari rus tilidan o'zbek (lotin) yozuviga o'tkazish.	6 488 ta	

1.3.3-rasm. Davlat kartografiya - geodeziya fondida amalga oshirilgan ishlar

Davlat kartografiya-geodeziya fondida 2023-yil i-chorakda amalga oshirilgan ishlar.		
Kartografiya va geodeziyaga oid material (ma'lumotlarni elektron ko'rinishga keltirish bo'yicha.		
Turli mashtablardagi topografik xarita (qog'oz shaklidagi)larni skaynerlash.	956 ta	
Turli mashtablardagi topografik reja (qog'oz shaklidagi)larni skaynerlash.	672 ta	
Tarixiy xaritalarni skaynerlash.	177 ta	
Turli yillardagi mikrofilmilarni skaynerlash.	2 300 ta	
Qog'oz shaklidagi xaritalar va rejalar kadastr otributlari.	324 ta	
Ortofotoplanlar (aero-fotosomka va kosmik-fotosomka) kadastr otributlari.	1 598 ta	
Nivellash punktlari kadastr otributlari.	47 ta	
Triangulyatsiya punktlari kadastr otributlari (yangilash).	1 295 ta	
Raqamli xaritalar kadastr otributlari.	217 ta	
Nivellash punktlari ma'lumotlari rus tilidan o'zbek (lotin) yozuviga o'tkazish.	6 488 ta	

1.3.4-rasm. Davlat kartografiya - geodeziya fondidaga qabul qilingan va taqdim etilgan material(ma'lumot)lar

### **1.3.1. Binolar va inshootlar davlat kadastrining tarkibi va bosqichlari**

Binolar va inshootlar davlat kadastr kadastr planidan(rejasi)dan, kadastr hujjalardan va geofondlardan, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389- son qarorining 2 - ilovasiga binoan «Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risi»dagi Nizom\10\da belgilangan tartibda shakllantiriladigan axborot tizimi ma‘lumotlaridan iborat.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish axborot tizimlari orqali quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi (1.3.5-rasm):

- 1- bosqich - binolar va inshootlarning texnik ko‘rsatkichlarini o‘lchash vositalari orqali aniqlash va axborot tizimida hisobga olish;
- 2- bosqich - obyektlarni chizmada joylashtirib, raqamli kadastr rejasi(plani )ni tuzish;
- 3- bosqich - oldingi bosqichlarda olingan ma‘lumotlarni hisobga olgan holda, ma‘lumotlarni axborot tizimiga kiritish yoki mavjud ma‘lumotlarni yangilash.



1.3.5-rasm. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish tartibi.

Binolar va inshootlar davlat kadastr ma‘lumotlari O‘zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo‘linishi, tumanlar, shaharlar bo‘yicha tuziladi, ularning hududi

davlat yer kadastr ma‘lumotlari asosida hisobga olish uchastkalariga bo‘linadi. Tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlarining kadastrga oid bo‘linishi chegaralarni belgilash va hududlarni tuman doirasida yoxud shahar chegaralarini hisobga olish uchastkalariga bo‘linishini bildiradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasiga, viloyatlarga. Toshkent shahriga, tumanlar, shaharlar va boshqa aholi yashash punktlariga, shuningdek, hisobga olish uchastkalariga yagona tizim bo‘yicha kadastr raqami beriladi.

Binolar va inshootlarning kadastr yig‘majildi ma‘lumotlari binolar va inshootlar davlat kadastr ma‘lumotlarining asosini tashkil qiladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastriga ma‘lumotlar belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida ularning qurilishi tugallangandan keyin yoxud qonunchilik hujjalarda nazarda tutilgan tartibda va shartlarda ular bo‘yicha bitimlar tuzilgandan keyin hisobga kiritiladi. Qonunchilik hujjalarda belgilangan holatlarda qurilishi tugallanmagan binolar va inshootlar ham binolar va inshootlar davlat kadastrida hisobga olinishi mumkin. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda axborot tizimida bino va inshootga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar (ularning paydo bo‘lishi, boshqa shaxsga o‘tishi, cheklanishi va to‘xtatilishi) to‘g‘risidagi, shuningdek, obyektni tavsiflovchi boshqa ma‘lumotlar qayd etiladi.

Maxfiylik rejimiga ega bo‘lgan binolar va inshootlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni shakllantirish va mazkur obyektlarni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha ma‘lumotlardan foydalanish shartlari qonunchilik hujjalarda belgilanadi.

Binolar va inshootlar joylashgan yer, ularga bo‘lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlarning yuridik va jismoniy shaxslarga tegishliliqi, ushu huquqlarning paydo bo‘lish asoslari va muddatları, ularning to‘xtatilish muddatları, mulk huquqi va boshqa ashyoviy huquqlarni cheklash shartlari, ushu obyektlarga uchinchi shaxslarning huquqlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar binolar va inshootlarning huquqiy holati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar hisoblanadi. Ushbu ma‘lumotlar axborot tizimiga bino va inshootga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish jarayonida kiritiladi. Binolar va inshootlarning qiymati, ulardan foydalananish

xususiyatlari, ushbu obyektlarning ishlab chiqarishdagi maqsadlari va boshqa ma'lumotlar binolar va inshootlar xo'jalik maqomining asosini tashkil etadi.

Binolar va inshootlarning yer tuzish sxemalariga, aholi punktlarining bosh rejalariga, qishloq va mahalla fuqarolari yig'innari hududlarini me'moriy rejashtirishni tashkil etish loyihalariga va boshqa shaharsozlik hujjatlariga, shuningdek, shaharsozlik me'yorlari va qoidalari talablariga muvofiqligi, binolar parametrlari (qavatlari, umumiyligi, yashash, ishlab chiqarish maydonlari), egallab turgan yer uchastkasi, qurilgan sanasi, muhandislik-texnik kommunikatsiyalarning mavjudligi, seysmik chidamliligi to'g'risidagi va boshqa texnik ma'lumotlar binolar va inshootlarning arxitektura-qurilish maqomi hisoblanadi.

Kadastr ma'lumotlari asl hujjatlar yoki davlat organlari qarorlarining, shartnomalarning (oldi - sotdi, hadya qilish, almashtirish, ijara olish, renta va boshqalar), binolar va inshootlar loyiha - smeta hujjatlarining, ilgari ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarning tegishli ravishda rasmiylashtirilgan nusxalari asosida tuziladi.

Har bir bino va inshoot to'g'risidagi axborot tizimidagi muayyan kadastr raqami ostida yozib qo'yiladi.

Axborot tizimidagi yozuvlarni o'zgartirishga yoki to'ldirishga yo'l qo'yilmaydi. Agar axborot tizimiga kiritilgan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish zarurati paydo bo'ssa, u holda ilgarigi yozuvlar axborot tizimida saqlanib qolgan holda bekor qilinadi va obyekt to'g'risidagi yangi ma'lumotlar bilan aynan shu kadastr raqami ostida to'ldiriladi.

Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda, uning Nizomi\10\ning 12 - bandida nazarda tutilgan ma'lumotlar to'plangan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan keyin bino yoki inshoot kadastr rejasida belgilanadi. Kadastr rejasiplani avtomatik loyihalashtirish tizimlaridan foydalangan holda elektron shaklda bo'lib, bu ro'yxatdan o'tkaziladigan obyektlarning joylashuvi va asosiy parametrlarining ko'rgazmali chizma belgilanishini ta'minlaydi.

Davlat kadastrlari yagona tizimida binolar va inshootlar davlat kadastr tuman(shahar)lar kesimida Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy

boshqarmalari tomonidan yuritiladi. Binolar va inshootlar davlat kadastr ma'lumotlar bazasida binolar va inshootlar tasnifi bo'yicha obyektlar guruhga bo'linadi. Bunda binolar va inshootlarning hududiyligi, maqsad yo'nalishi, yuridik va jismoniy shaxslarga mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlarda tegishliligi, shuningdek, qurilish - texnik tavsiflariga qarab belgilanadi. Binolar va inshootlar yagona klassifikatori Kadastr agentligi tomonidan tasdiqlanadi.

Binolar va inshootlarning holati bo'yicha kadastr ma'lumotlarining umumlashtirilgan statistik ko'rsatkichlari Kadastr agentligi tomonidan har yili tuman va shaharlar kesimida ochiq ma'lumot sifatida Internet tarmog'ida keng yoritilishi tashkil etiladi.

Ko'chmas mulk obyektlariga kadastr yig'majildi\10a\ni tayyorlash tartibida quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

\*bino - funksional maqsadiga qarab, odamlar yashashi yoki bo'lishiga va har xil turdag'i ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga mo'ljallangan, yopiq hajmi tashkil etuvchi tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat qurilish tizimi;

\*yer uchastkasi - yer yuzasining qayd etilgan chegaraga, maydonga, joylashish manziliga, huquqiy rejingga hamda boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan qismi;

\*inshoot - har xil turdag'i ishlab chiqarish jarayonlarini bajarishga, materiallar, buyumlar, asbob - uskunalarini saqlashga, odamlarning vaqtinchalik bo'lishiga, odamlar, yuqlar va boshqa narsalarni olib o'tishga mo'ljallangan, tayanch, to'sma yoki har ikkala maqsadga xizmat qiluvchi konstruksiyalardan iborat hajmiy, yassi yoki chiziq tarzidagi yer tepasida, yer yuzasida va yer ostida joylashgan qurilish tizimi;

\*kadastr yig'majildi - obyektning ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni shakllantirish, hisobga olish va keyinchalik davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur bo'lgan kadastr suratiga olish, texnik xatlovdan o'tkazish va pasportlashtirishning, maxsus tekshirish va izlanishlarning, sifat va qiymat jihatidan baholashning hujjatlari, materiallari va ma'lumotlari jamlamasi;

\*kadastr muhandisi - geodeziya - kartografiya ishlari bilan shug'ullanuvchi tashkilot bilan tuziladigan mehnat shartnomasi asosida faoliyat yurituvchi yoki o'z faoliyatini

yakka tartibdag'i tadbirkor sifatida amalga oshiruvchi va kadastr muhandisi malaka shahodatnomasiga ega jismoniy shaxs;

\*kadastr pasporti - ko'chmas mulk obyekti va obyektning kadastr raqami haqida umumiy ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron hujjat;

\*ko'p yillik daraxtlar - bog'lar, tokzorlar, tutzorlar va boshqa o'rmon daraxtlari;

\*ko'chmas mulk - yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol - mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar;

\*maxsus inshootlar - belgilangan maqsadlarda foydalanish uchun alohida yer uchastkasida qurilgan muhandislik inshootlari majmuasi, jumladan, temir va avtomobil yo'llari, aloqa va elektr o'tkazish liniyalari, yer yuzasida, yer usti va yer ostida joylashgan magistral quvurlar, magistral kanal va kollektorlar;

\*qurilishi tugallanmagan obyektlar - qurilishi belgilangan tartibda ajratilgan yer uchastkasida tasdiqlangan loyiha hujjatlari muvofiq boshlangan, lekin muayyan kunga kelib tugallanmagan yoki qurilishi tugallangan, lekin foydalanishga qabul qilinmagan bino va inshootlar.

Kadastr yig'majildi ko'chmas mulkning turi, tavsifi, hajmi, qiymati va boshqa ko'rsatkichlarini aniqlash maqsadida axborot tizimi orqali tayyorlanadi va saqlanadi. Kadastr yig'majildi ko'chmas mulk obyektining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsiflari va qiymati, shuningdek, uning holatidagi joriy o'zgarishlar haqidagi materiallar va ma'lumotlarni hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni jamlash yo'li bilan kadastr muhandislari va O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvidagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasini (keyingi o'rnlarda - Davlat kadastrlari palatasi) tegishli tuman(shahar) filiallari tomonidan tayyorlanadi va qog'oz hamda elektron shaklda Davlat kadastrlari palatasida doimiy saqlanadi.

Ko'chmas mulk obyektiga tayyorlangan kadastr yig'majildi natijasi bo'yicha mulkdorga yoki uning ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxsga, shuningdek, mulkdorning merosxo'riga kadastr pasporti taqdim etiladi. Mulkdorning yoki uning

ishonchnomasi asosida harakat qiluvchi shaxsnинг, shuningdek, mulkdor merosxo'rining so'roviga ko'ra kadastr yig'majildining nusxasi elektron shaklda taqdim etiladi. Davlat kadastrlari palatasining tuman(shahar) filiallari tomonidan o'tkazilgan o'lehov ishlari natijasida tayyorlangan kadastr yig'majildi tarkibidagi ma'lumotlar haqqoniyligiga - Davlat kadastrlari palatasining tuman(shahar) filiallari, shuningdek, kadastr muhandislari tomonidan o'tkazilgan o'lehov ishlari natijasida tayyorlangan kadastr yig'majildi tarkibidagi ma'lumotlar haqqoniyligiga - kadastr muhandislari javobgar hisoblanadi.

Davlat kadastrlari palatasining tuman(shahar) filiallari tomonidan kadastr yig'majildini tayyorlash va uning natijasi bo'yicha kadastr pasportini taqdim etish kadastr obyektining murakkabligiga qarab quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi (1.3.6 - rasm):

a) ko'chmas mulk obyektlarining turar joyga oid qismi bo'yicha:

ko'p kvartirali uydagi kvartira - 3 ish kunigacha;

yakka tartibdag'i turar joy - 5 ish kunigacha;

b) ko'chmas mulk obyektlarining noturar joyga oid qismi hamda yaxlit ko'p kvartirali uylar bo'yicha:

umumiy maydoni 100 kv. metrgacha bo'lgan ko'chmas mulk - 5 ish kunigacha;

umumiy maydoni 100 kv. metrdan 1 000 kv. metrgacha bo'lgan ko'chmas mulk - 7 ish kunigacha;

umumiy maydoni 1 000 kv. metrdan 5 000 kv. metrgacha bo'lgan ko'chmas mulk - 10 ish kunigacha;


umumiy maydoni 5 000 kv. metrdan 15 000 kv. metrgacha bo'lgan ko'chmas mulk - 15 ish kunigacha;

umumiy maydoni 15 000 kv. metrdan 50 000 kv. metrgacha bo'lgan ko'chmas mulk - 20 ish kunigacha;

umumiy maydoni 50 000 kv. metrdan ortiq bo'lgan ko'chmas mulk - 25 ish kunigacha;

ajratilgan yer uchastkalari bo'yicha - 3 ish kunigacha;

kadastr (yig'majildi) pasporti yo'qolganda (yaroqsiz holga kelganda), yangi kadastr pasporti 2 ish kuni mobaynida yangilab beriladi.



1.3.6 - rasm. Kadastr yig'majildini tayyorlash va kadastr pasportini taqdim etish muddatlari.

Kadastr yig'majildi yer uchastkasining, binolar va inshootlarning hamda ko'p yillik daraxtlarning kadastr ma'lumotlaridan iborat bo'ladi. Yer uchastkasi yaxlitligini yo'qtagan holda ushbu ko'chmas mulk obyekti bo'yicha o'zgarishlar (binolar va inshootlar qurilishi, rekonstruksiya qilinishi, ko'p yillik daraxtlar barpo etilishi) haqidagi ma'lumotlar kadastr yig'majildiga kiritib boriladi.

Ko'chmas mulk obyektiaga kadastr yig'majildini tayyorlash va kadastr pasportini rasmiylashtirishni rad etish uchun quydagilar asos bo'ladi:

- \*tuman (shahar) filialida ushbu ko'chmas mulk obyekting mansubligi masalasida nizolar borligidan dalolat beruvchi sud hujjatlarining mavjudligi;
- \*vakolati organ tomonidan ko'chmas mulk obyektiqa taqiq yoki xatlov qo'yilganligi;
- \*taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri, qarama - qarshi yoki buzilgan ma'lumotlar aniqlanishi;
- \*tuman(shahar) filialida ushbu yer uchastkasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi;
- \*yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda bekor qilinganligi;
- \*ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganligi;
- \*ko'chmas mulk obyekti o'chov ishlaring olib borilishiga, shu jumladan, ko'chmas mulk obyektiqa kirish imkoniy yo'qligi (foydalanib kelayotgan shaxslar tomonidan bino va inshootga, yer uchastkasiga kirishga qarshilik qilish).

Kadastr muhandisi yuridik va jismoniy shaxslarga kadastr yig'majildini tayyorlab berish bo'yicha kelishuv shartnomasiga muvofiq Davlat kadastrlari palatasining maxsus axborot tizimida ajratilgan shaxsiy kabinetni orqali ko'chmas mulk obyektiqa oid ma'lumotlarni kiritadi hamda mulkdor (foydalanuvchi)ning ko'chmas mulkiga oid mavjud axborotni tizimda o'ziga yuklab oladi.

Kadastr muhandisi o'z shaxsiy kabinetni orqali quydagi ma'lumotlarni Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmasiga yuboradi:

- \*ko'chmas mulk obyekting kadastr raqami (kadastr hujjatlariga o'zgartirish kiritilayotganda);
- \*mulkdor (foydalanuvchi) yuridik va jismoniy shaxsning nomi;

\*yuridik shaxslarda soliq to‘lovchining identifikatsiya raqami, jismoniy shaxslarda jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami;

\*kadro yig‘majildini tayyorlash (qayta tayyorlash) uchun Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 39 dekabrdagi 1060 - son qarori bilan tasdiqlangan «Ko‘chmas mulk obyektilariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomining 21, 22, 23, 38, 39, 40, 41- bandlarida ko‘rsatilgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlar;

\*ko‘chmas mulk obyektiga kadastr yig‘majildini tayyorlash (qayta tayyorlash) bo‘yicha tomonlar o‘rtasida imzolangan, shu jumladan, jismoniy shaxs tomonidan shaxsiy ma‘lumotlardan foydalanishga rozilik berilgan shartnoma.

Kadastr muhandisi malaka shahodatnomasining amal qilishi tugaganda, shaxsiy kabinetning ishchi funksiyalari cheklanadi.

### 1.3.2. Yer uchastkasining kadastr ma‘lumotlarini tayyorlash

Yuridik va jismoniy shaxslarning foydalanishida bir nechta yer uchastkasi bo‘lsa, kadastr yig‘majildi ularning har biri bo‘yicha tayyorlanadi, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bundan mustasno.

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdarda jismoniy yoki yuridik shaxsga bitta huquqni belgilovchi hujjat bilan ajratilgan bir necha yer uchastkalarini umumlashtirgan holda kadastr yig‘majildi tayyorlanishi mumkin.

yer uchastkasining kadastr yig‘majildini tayyorlashda quyidagi ishlar bajariladi:

\*yer uchastkasining geodezik o‘lchov natijasida topografik xaritalarini tayyorlash;

\*yer kadastr ma‘lumotlari, yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlarni tasdiqlovchi va chekllovchi hujjatlar hamda servitutlar mavjudligini o‘rganish;

\*yer uchastkasini joyida xatlovdan o‘tkazish;

\*yer uchastkasining chegaralari va umumiyl maydonini huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlardagi ma‘lumotlar bilan solishtirish va ularning farqini aniqlash;

\*yer uchastkasining amaldagi maydoni huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarda belgilangan maydonдан ortiq bo‘lsa, o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yerning chegarasini kadastr rejasini(planiga) tushirish;

\*ko‘chmas mulk obyektini hisobdan o‘tkazish varaqasida yer haqidagi ma‘lumotlarni kiritish.

Yer uchastkalari geodezik asboblar yordamida (WGS - 84 koordinatalar tizimida) o‘lchovdan o‘tkaziladi. Bunda chegara burilish nuqtalarining koordinatlari aniqlanadi va shartli belgilardan foydalanib, yer uchastkasining elektron raqamli kadastr plani(reja)si tuziladi.

yer uchastkasining elektron raqamli kadastr plani(reja)siga quyidagilar tushiriladi va ma‘lumotlar aks ettiriladi:

\*binolar va inshootlar hamda boshqa geografik obyektlar;

\*yer uchastkasining davlat hokimiyyati organlari tomonidan o‘rnatilgan muhofaza tegra(zona)lari va o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yernarning chegaralari (mavjud bo‘lsa);

\*chegaradosh yer uchastkalari va ularga bo‘lgan huquq egalarining nomlari.

yer uchastkasining elektron raqamli kadastr plan(reja)si uning maydonidan kelib chiqib, kadastr yig‘majildida tasvirlash uchun qulay mashtablarda tuziladi. Bunda aholi punktlaridagi yer uchastkasining kadastr rejasini 1:500 mashtabdan 1:2000 mashtabgacha, aholi punktlaridan tashqarida joylashgan qishloq va o‘rmon xo‘jaliklari yer uchastkasining kadastr rejasini 1:5000 mashtabda yoki 1:10000 mashtabda tuziladi.

Qishloq va o‘rmon xo‘jaligi yerdarsi, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar va boshqa shu kabi maqsadlarda foydalanilayotgan yer uchastkalarining elektron raqamli kadastr rejasini mavjud topografik va qishloq xo‘jaligi elektron xaritalaridan foydalanib tuziladi.

Agar yer uchastkasining 1:500 mashtabdan 1:2000 mashtabgacha zamonaviy (aktual) topografik syomka materiallari mavjud bo‘lsa, kadastr rejasini ular asosida tuzilishi mumkin.

Yer uchastkasining elektron raqamli kadastr rejasini arxivda saqlash uchun qog‘ozda chop etilib, rejasini tuzgan ijrochi, yer uchastkasiga bo‘lgan huquq egasi tomonidan imzolanadi va chegaradosh yer uchastkalariga bo‘lgan huquq egalari bilan

kelishiladi va yer uchastkasining chegaralarini aniqlash va kelishish dalolatnomasiga (keyingi o'rnlarda - dalolatnoma) uning ajralmas qismi sifatida ilova qilinadi.

Yer uchastkasi joylashgan manzil tez aniqlanishini ta'minlash maqsadida yer uchastkasi joylashgan hudud rejasи tayyorlanadi va kadastr yig'majildiga kiritiladi. Yer uchastkasi joylashgan hudud rejasи yer uchastkasi tushirilgan, unga yaqin hududlarni o'z ichiga olgan topografik kartalardan yoki boshqa rejallardan ko'chirmadan iborat bo'ladi.

Yer uchastkasini xatlovdan o'tkazish natijasi bo'yicha quyidagi hollarda yer uchastkasining chegaralari qo'shni chegaradoshlar bilan kelishiladi:

\*yangi ajratilgan yer uchastkalarida;

\*ko'chmas mulkning bir qismini begonalashtirish natijasida yer uchastkasi bo'linganda.

Mazkur bandda nazarda tutilgan holatlarda yer uchastkasini kelishish binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish to'g'risidagi Nizom\12\da 10 - ilovada keltirilgan namunaviy shaklda dalolatnoma tuzish hamda qo'shni chegaradoshlar tomonidan imzo qo'yish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

\*yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat nomi, sanasi va raqami;

\*yer uchastkasining joylashgan manzili - tuman, shahar, shaharcha, qishloq (ovul) va ko'chaning nomi, uy raqami, agar ko'chaning nomi va uy raqami bo'lmasa, qishloq (ovul), mahalla va aholi punktining nomi keltiriladi;

\*yer uchastkasining chegaralari ta'rifi;

\*yer uchastkasining umumi maydoni - hujjatlar bo'yicha va amalda;

\*yer uchastkasining yer uchastkasini berish to'g'risidagi hujjatlarda belgilangan foydalanish maqsadi va amaldagi foydalanish turi;

\*qishloq xo'jaligida foydalanilayotgan yersharning turlari, bonitet ballari va me'yoriy qiymati;

\*huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda belgilangan muhofaza zonasining maydoni;

\*yer uchastkasi haqidagi boshqa zarur ma'lumotlar.

Dalolatnoma yer uchastkasi yuridik shaxsga tegishli bo'lsa, uning rahbari yoki ishonchli vakili tomonidan, agar yer uchastkasi jismoniy shaxsga tegishli bo'lsa, ushbu jismoniy shaxs yoki uning ishonchli vakili tomonidan imzolanadi. Agar chegaradosh yer uchastkalariga bo'lgan huquq egasi - jismoniy shaxs uzoq muddatga boshqa joyga ketgan bo'lsa, yuridik shaxs boshqa tumanda (shaharda) joylashgan bo'lib, chegaralarni kelishish kuni va vaqtli to'g'risida ogohlantirilgan bo'lsa - da, uning rahbari yoki ishonchli vakili kelishish uchun kelmasa, ushbu holat dalolatnomada aks ettiriladi.

Yer uchastkalarini chegaralarini aniqlashda yer uchastkasining chegaralari chegaradosh yer uchastkalariga bo'lgan huquq egasi (egalari) bilan kelishilmagan taqdirda, nizo sud tartibida hal etiladi.

Keyinchalik yer uchastkasiga yoki chegaradosh yer uchastkasiga nisbatan belgilangan huquq turi yoki huquq egasi o'zgarganda, dalolatnomani qayta tuzish talab etilmaydi, yer uchastkasining chegarasi o'zgargan holatlar bundan mustasno.

Ko'chmas mulk obyektini hisobga olishda yer uchastkasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

\*yer uchastkasining joylashgan manzili;

\*manzil belgilanishi (mavjud, yangi berilgan, o'zgartirilgan);

\*manzil berish yoki o'zgartirishni asoslovchi hujjat;

\*yer uchastkasining toifasi;

\*yer uchastkasining nomi;

\*yer uchastkasining kadastr raqami;

\*iqtisodiy zonas;

\*yer uchastkasidan foydalanish maqsadi;

\*yer uchastkasining umumi maydoni (ga);

\*yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat nomi, sanasi va raqami;

\*yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjat bo'yicha yer uchastkasining maydoni (ga);

\*o'zboshimchalik bilan egallangan yer maydoni;

\*muhofaza zonalari;

- \*muhofaza zonalarining maydoni (ga);
- \*cheklovlar va servitrlar;
- \*ko‘p yillik daraxtlar bilan egallangan yer maydoni;
- \*yer uchastkasini baholash to‘g‘risida ma’lumotlar;
- \*yer uchastkasiga xos boshqa ma’lumotlar.



1.3.7 - rasm. Respublika bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar egaligida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari soni.

1.3.7 - rasmida Respublika bo‘yicha jismoniy va yuridik shaxslar egaligida bo‘lgan ko‘chmas mulk obyektlari sonini 01.04.2023 yil holatiga ko‘rsatilgan. Respublika bo‘yicha ko‘chmas mulk obyektlari soni va kadastr xizmatidan foydalanish ko‘lamini ushbu qiymatlardan ko‘rshimiz mumkin.

## II bob. BINOLAR VA INSHOOTLAR DAVLAT KADASTRINI YURITISHNI GAT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH BO‘YICHA MAVJUD DASTURLARNI O‘RGANISH VA TAHLIL QILISH

### 2.1. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish

O‘zbekiston Respublikasida fazoviy ma’lumotlardan foydalanish tartibi O‘zbekiston Respublikasining Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 26-dekabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2021-yil 29-mayda ma’qullangan “Fazoviy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi qonuni

\3\ hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fazoviy ma’lumotlar sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ - huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” gi 2022-yil 26-oktyabrdagi 620- son qarori\14\ga asosan olib borilmoqda.

“Fazoviy ma’lumotlar to‘g‘risida”gi Qonuni \3\da quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llanilgan:

- \*fazoviy ma’lumotlar - fazoviy obyektlar to‘g‘risidagi, shu jumladan ularning joylashgan yeri, shakli va muayyan shaklda hamda fazoviy - vaqt koordinatalari tizimlarida taqdim etilgan boshqa xossalari haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan ma’lumotlar;

- \*fazoviy ma’lumotlarga ishlov berish - fazoviy ma’lumotlar va metama’lumotlarni yaratish, yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, yangilash, vizuallashtirish, ulardan foydalanish, ularni taqdim etish, tarqatish va uzatish bo‘yicha bir yoki bir nechta harakatlar yig‘indisini amalga oshirish;

- \*metama’lumotlar - fazoviy ma’lumotlarning to‘plamlari, servislari va boshqa xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradigan, ularni identifikatsiya qilish, izlash, inventarizatsiyalash va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlar;

- \*fazoviy ma’lumotlar milliy infratuzilmasining geoportal - geoaxborot resurslari to‘g‘risidagi metama’lumotlarni saqlab turadigan va ulardan foydalanishni internet jahon axborot tarmog‘i orqali ta’minlaydigan fazoviy ma’lumotlarning internet vositalari va servislarning majmuasi;

\*fazoviy ma'lumotlardan foydalanuvchi (bundan buyon matnda foydalanuvchi deb yuritiladi) - fazoviy ma'lumotlardan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs;

\*fazoviy obyektlar - joylashgan yeri belgilangan fazoviy - vaqt koordinatalari tizimida aniqlanishi mumkin bo'lgan tabiiy va sun'iy obyektlar.

Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilar:

\*qonuniylik;

\*fazoviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;

\*bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olish;

\*fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarning himoyalanganligi.

Fazoviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi:

\*davlat geodeziya, niveler va gravimetriya tarmoqlarini ishlash holatida saqlab turish;

\*davlat topografik xaritalarini kartografik monitoring qilish va uzlusiz yangilab borish tizimini joriy etish;

\*tartibga solingan koordinatalar tizimlaridan va mavjud bazaviy \*fazoviy ma'lumotlardan davlat axborot resurslarini hamda yangi bazaviy fazoviy ma'lumotlarni yaratishda foydalanish;

\*bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlar hamda metama'lumotlarning doimiy monitoringi, ilmiy - texnik ekspertizasi va nazoratini amalga oshirish hisobidan ta'minlanadi.

Bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olish:

\*bazaviy fazoviy ma'lumotlar tarkibida davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni, shuningdek foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklangan boshqa axborotni tashkil etadigan ma'lumotlarning mavjud emasligi;

\*foydalanuvchilarga bazaviy fazoviy ma'lumotlardan yerkin foydalanish. shu jumladan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini berish hisobidan ta'minlanadi.

Fazoviy ma'lumotlar metama'lumotlarning himoyalanganligi prinsipi:

Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarga ishlov berish ularning himoyalanganligi yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni himoya qilish:

\*shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;

\*qonunchilikda belgilanadigan hollarda ushbu ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash;

\*ularning buzilishi va soxtalashtirilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi ishlarning turlari:

Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi ishlar quyidagi turlarga bo'linadi:

\*fazoviy ma'lumotlarni va metama'lumotlarni yaratish, yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, yangilash, vizuallashtirish, ulardan foydalanish, ularni taqdim etish, tarqatish va uzatish;

\*turli maqsadlarga mo'ljallangan fazoviy ma'lumotlar va geoaxborot tizimlari servislarini ishlab chiqish hamda taqdim etish;

\*fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish uchun foydalaniladigan texnik va dasturiy vositalarni yaratish;

\*geoportallarni yaratish va ularning faoliyat ko'rsatishini ta'minlash; fazoviy ma'lumotlarning va metama'lumotlarning sisatini ilmiy-texnik ekspertizadan o'tkazish;

\*fazoviy ma'lumotlar bazalarini, metama'lumotlar bazalari va kataloglarini, fazoviy ma'lumotlar servislarini, geoaxborot tizimlarini, geoportallarni, fazoviy ma'lumotlar sohasidagi boshqa texnik va dasturiy vositalarni yaratish bo'yicha ilmiy - tadqiqot, tajriba \* texnologik hamda tajriba - konstrukturlik ishlarini bajarish;

\*normativ - huquqiy hujjatlar va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

\*fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining faoliyat ko'rsatishini hamda rivojlantirilishini ta'minlash maqsadida boshqa mahsulotni yaratish va (yoki) boshqa ishlarni bajarish.

\*fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish O'zbekiston Respublikasida foydalanish uchun qabul qilingan koordinatalar tizimlarida Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga muvofiq amalga oshiriladi.

Bazaviy, sohaga oid fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlar

Fazoviy ma'lumotlar bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlarga bo'linadi.

Hamma foydalana oladigan, fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish jarayonlari uchun bir xillashtirilgan raqamli koordinata - fazoviy asosni tashkil etadigan fazoviy ma'lumotlar bazaviy fazoviy ma'lumotlardir.

Bazoviy fazoviy ma'lumotlar quyidagi obyektlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi:

\* geodeziya, niveler va gravimetriya tarmoqlarining punktlari;

\*O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasi, ma'muriy - hududiy birliklarning chegaralari;

\*gidrografik obyektlar va gidrotexnika inshootlari;

\*aholi punktlari va ularning ko'cha - yo'l tarmog'i;

\* sanoat, qishloq xo'jaligi obyektlari va ijtimoiy - madaniy obyektlar;

\* binolar va inshootlar;

\*avtomobil yo'llari;

\*temir yo'llar;

\*magistral quvurlar;

\* muhandislik kommunikatsiyalari;

\* aeroportlar, daryo bandargohlari;

\*o'simlik qoplami va tuproqlar;

\*yer uchastkalarining chegaralari;

\*muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va madaniy meros obyektlari;

\*aholi punktlarining chegaralari va zonalashtirish obyektlari, shuningdek shahar atrofidagi zonalar;

\*muhofaza etiladigan zonalar hamda hududlardan foydalanishning alohida shartlariga ega bo'lgan zonalar;

\*aholi punktlari hududidagi va undan tashqaridagi ko'chalarning reyestrlari hamda obyektlarning manzillari;

\*geografik obyektlarning nomlari;

\*joy relyesi;

\*ortofotoxaritalar, aero- va kosmik suratlar hamda yerni masofadan turib zond bilan tekshirishga doir ishlarning natijalari.

Bazaviy fazoviy ma'lumotlarda davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni, shuningdek foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklangan boshqa axborotni tashkil etadigan ma'lumotlar bo'lmasligi kerak.

Bazaviy fazoviy ma'lumotlar asosida yaratiladigan mavzuga oid fazoviy ma'lumotlar sohaga oid fazoviy ma'lumotlardir.

Bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlarga, ularning tarkibi va mazmuniga, ularning metama'lumotlariga doir talablar Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga muvofiq hamda boshqa hujjatlarda belgilanadi.

Metama'lumotlar fazoviy ma'lumotlar hamda fazoviy ma'lumotlar servislarning tarkibi, tuzilmasi, sifati, ishonchliligi, hududiy qamrovi, vazifalari, ulardan foydalanish, foydalanishni cheklash shartlari, fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi, ularning yaratilish vaqtqi, ularni yangilash davriyligi to'g'risidagi axborotni o'z ichiga oladi hamda boshqa axborotni ham o'z ichiga olishi mumkin.

Davlat organlarining buyurtmasiga ko'ra yaratilgan fazoviy ma'lumotlar davlat mulki hamda fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining tarkibiy qismidir.

Fazoviy ma'lumotlarni va metama'lumotlarni taqdim etish

Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlar davlat organlariga o'z vakolatlarini amalga oshirishi uchun - beg'araz asosda, boshqa foydalanuvchilarga esa - maxsus vakolatli davlat organi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilanadigan miqdorlardagi haq evaziga taqdim etiladi.

Davlat organlari, fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslar Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga muvofiq fazoviy ma'lumotlardan va metama'lumotlardan foydalanishni cheklashi mumkin.

Bazaviy fazoviy ma'lumotlar foydalanuvchilarga fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportali servislardan, «Elektron hukumat» tizimining idoralararo integratsiyalashgan platformasidan foydalangan holda yoxud fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga hamda maxsus vakolatli davlat organi bilan kelishuvga muvofiq uzatish yo'li bilan taqdim etilishi mumkin.

Davlat organlari va fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslar o'zlarini yaratgan va yangilagan bazaviy fazoviy ma'lumotlarni maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etishi shart.

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga muvofiq tegishli bazaviy fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish uchun javobgar bo'lgan davlat organlari bazaviy fazoviy ma'lumotlarni maxsus vakolatli davlat organiga:

\*fazoviy ma'lumotlarning servislardan foydalanish imkoniyatini berish;

\*kelishilgan formatda va sifatda fazoviy ma'lumotlarni uzatish yo'li bilan taqdim etadi.

Maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

\*bazaviy fazoviy ma'lumotlarni, shuningdek metama'lumotlarni qabul qilib olish va nazorat qilish hamda ularni Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportaliga joylashtirishni;

\*geoaxborot tizimlarida, resurslar va ma'lumotlar bazalarida mayjud bo'lgan, davlat xizmatlari ko'rsatish uchun zarur axborotni va ma'lumotlarni «Elektron hukumat» tizimining idoralararo integratsiyalashgan platformasiga taqdim etishni;

\*fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining dasturiy ta'minotini ishlab chiqish va joriy etishni;

\*fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining texnik va texnologik ta'minotini;

\*fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi ma'lumotlarini saqlashni va himoya qilishni;

\*fazoviy ma'lumotlar servislari yaratilishini va ularga xizmat ko'rsatilishini ta'minlashni;

\*foydalanuvchilarning Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi geoportaliga joylashtirilgan fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlardan foydalanishini ta'minlashni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi fazoviy ma'lumotlar mulkdorining yoki egasining roziligi bilan:

\*qog'ozdag'i fazoviy ma'lumotlarni elektron shaklga o'zgartirishni amalga oshiradi;

\*fazoviy ma'lumotlarga, shu jumladan bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlarga hamda ularning metama'lumotlariga ishlov berishni amalga oshiradi;

\*foydalanuvchilarga bazaviy fazoviy ma'lumotlarni va metama'lumotlarni Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibiga muvofiq taqdim etadi.

Davlat organlari, shuningdek fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslarning vakolatlari:

\*fazoviy ma'lumotlarga va metama'lumotlarga ishlov berilishini ta'minlaydi;

\*o'z vakolatlarini amalga oshirish uchun fazoviy ma'lumotlardan va metama'lumotlardan foydalanadi;

\*fazoviy ma'lumotlarning va metama'lumotlarning qonuniyligini, aniqligi, ishonchliligi va himoyalanganligini, shuningdek bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligini hamda ulardan foydalana olishni ta'minlaydi;

\*fazoviy ma'lumotlarning va metama'lumotlarning maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

\*o'z fazoviy ma'lumotlari va metama'lumotlaridan maxsus vakolatli davlat organining foydalanishini ta'minlaydi;

\*o'z rasmiy veb - saytlariga Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportali orqali fazoviy ma'lumotlardan foydalanish shartlari haqidagi axborotni joylashtiradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O'zbekiston Respublikasi fazoviy ma'lumotlar sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ - huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida”gi qarori\14\ning O'zbekiston Respublikasi Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibi to'g'risidagi Nizomdag'i quyidagi asosiy tushunchalar qo'llanilgan:

\*atributiv ma'lumot - geografik axborot tizimi obyektlarining tavsiflarini ta'riflovchi jadval va (yoki) matn ko'rinishidagi ma'lumotlar to'plami;

\*vakolatli organlar - zimmasiga ayrim davlat kadastrlarini yuritish funksiyalari yuklatilgan hamda faoliyati davomida fazoviy ma'lumotlarni yaratadigan, ularni qayta ishlaydigan vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, xo'jalik birlashmalari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari;

\*maxsus vakolatli organ - O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvdag'i Kadastr agentligi;

\*bazaviy fazoviy ma'lumotlar - hamma foydalana oladigan, fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish jarayonlari uchun bixillashtirilgan raqamli koordinata - fazoviy asosni tashkil etadigan fazoviy ma'lumotlar;

\*geoaxborot resurslari - axborot banklari va fazoviy ma'lumotlar bazalari hamda metama'lumotlar, fazoviy ma'lumotlar servislari yig'indisi;

\*interoperabellik (o'zaro birgalikda amal qilish qobiliyati) - fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi fazoviy ma'lumotlarining, metama'lumotlarining, texnik va dasturiy vositalarining axborot va funksional jihatdan o'zaro birgalikda amal qilish qobiliyati;

\*metama'lumotlar - fazoviy ma'lumotlarning to'plamlari, servislari va boshqa xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradigan, ularni identifikatsiya qilish, izlash, inventarizatsiyalash va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar;

\*Milliy geografik axborot tizimi (keyingi o'rnlarda - MGAT) - fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining tarkibiy qismi bo'lib, milliy va boshqa fazoviy ma'lumotlar infratuzilmasiga kiritilgan bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlardan foydalangan holda umum davlat va tarmoqqa oid ahamiyatga ega vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan avtomatlashтирilgan tizim;

\*geoportal - axborot resurslari to'g'risidagi metama'lumotlar saqlanadigan va Internet jahon axborot tarmog'ida milliy geografik axborot resurslaridan foydalanishni ta'minlaydigan geofazoviy ma'lumotlarning internet - vositalari va servislari majmui;

\*Davlat kadastrlari yagona tizimi (keyingi o'rnlarda - DKYaT) - davlat kadastrlarining barcha turlarini birlashtiruvchi ko'p maqsadli tizim;

\*Tematik (mavzuli) qatlam - ma'lum hududdagi obyektlar to'plami uchun umumiyo bo'lgan koordinatalar tizimida bir mavzuga (o'simliklarga, avtomobil yo'llariga va h.k.) tegishli bir tipdag'i fazoviy obyektlarni raqamli ifodalash majmui;

\*fazoviy (geofazoviy) ma'lumot - joydag'i obyektlarning joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan, muayyan shaklda hamda koordinatalar tizimlarida ifodalangan axborot;

\*WGS - 84 (World Geodetic System 1984) - 1984 yilda AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan umumjahon geodeziya koordinatalari tizimi;

\*sohaga oid fazoviy ma'lumotlar - bazaviy fazoviy ma'lumotlar asosida yaratilgan mavzuga oid (tarmoqqa oid) fazoviy ma'lumotlar;

\*fazoviy ma'lumotlar - fazoviy obyektlar to'g'risidagi, shu jumladan, ularning joylashgan joyi, shakli va muayyan shaklda hamda fazoviy - vaqt koordinatalari tizimlarida taqdim etilgan boshqa xossalari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar;

\*fazoviy ma'lumotlar bazasi - foydalanuvchilarning izlashi va qo'llashi uchun tizimli tarzda tartibga solingan va ishlov berilgan fazoviy ma'lumotlar yig'indisi; fazoviy ma'lumotlarning integratsiyalashuvi - turli manbalardan olingan fazoviy obyektlar haqidagi ma'lumotlarni birlashtirish;

\*fazoviy ma'lumotlar infratuzilmasi - geografik axborot resurslaridan foydalanish va ular bilan almashinish uchun bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlar, metama'lumotlar, standartlar va reglamentlar, axborot uzatish tarmoqlari va geoservislar tizimi;

\*fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi - davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi, mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fazoviy ma'lumotlarni va metama'lumotlarni yaratish va yangilashni amalga oshiradigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

\*fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish - fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni yaratish, yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, yangilash, vizuallashtirish,

ulardan foydalanish, ularni taqdim etish, tarqatish va uzatish bo'yicha bir yoki bir nechta harakatlar yig'indisini amalgalash;

\*Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi (keyingi o'rnlarda - FMMI) - tashkiliy tuzilma, ilmiy - texnika siyosati, texnik va dasturiy vositalar, bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlar, metama'lumotlar hamda metama'lumotlar bazalarini, fazoviy ma'lumotlar servislarini, normativ - huquqiy hujjatlarni, shuningdek, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni, xalqaro standartlarni, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalanilishi mumkin bo'lgan fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqish, yangilash, ularga ishlov berish, ularni saqlash, berish, integratsiyalash hamda ulardan foydalanish masalalariga doir O'zbekiston Respublikasi davlat standartlarini o'z ichiga oladigan tizim;

\*FMMI administratori - geodeziya va kartografiya faoliyati sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining idoraviy bo'ysunuvidagi yuridik shaxs bo'lib, FMMIni yaratish, faoliyat ko'rsatishi va rivojlantirish sohasidagi chora - tadbirlarni amalgalash; FMMIning texnik va texnologik ta'minoti, sifatini nazorat qilish, ma'lumotlarning saqlanishi va himoyasi uchun javobgar bo'ladi;

\*FMMIning geoportali - geoaxborot resurslari to'g'risidagi metama'lumotlarni saqlab turadigan va ulardan foydalanishni Internet jahon axborot tarmog'i orqali ta'minlaydigan fazoviy ma'lumotlarning internet vositalari va servislarining majmuasi;

\*fazoviy ma'lumotlar saqlovichisi - davlat yoki xo'jalik boshqaruvi organi, mahalliy davlat hokimiyyati organi, fazoviy ma'lumotlarni boshqaradigan hamda qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa funksiyalarni amalgalash; foydalanishni har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs;

\*fazoviy ma'lumotlar servislari - foydalanuvchilarga fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish va ularni taqdim etish bo'yicha operatsiyalarni amalgalash; foydalanishga mo'ljallangan dasturiy - texnik vositalar;

\*fazoviy ma'lumotlar to'plami - identifikasiya qilish mumkin bo'lgan fazoviy ma'lumotlar jamlanmasi;

\*fazoviy ma'lumotlardan foydalanuvchi (keyingi o'rnlarda - foydalanuvchi) - fazoviy ma'lumotlardan foydalanadigan yuridik yoki jismoniy shaxs;

\*fazoviy obyektlar - joylashgan joyi belgilangan fazoviy - vaqt koordinatalari tizimida aniqlanishi mumkin bo'lgan tabiiy va sun'iy obyektlar;

\*tarmog'i gravimetriya - yer sathidagi og'irlik kuchining miqdorlari ma'lum bo'lgan geodeziya punktlari tizimi;

\*nivelir tarmog'i - joyda ishonchli mahkamlangan, balandligi esa hisoblash boshi (noli) deb qabul qilingan boshlang'ich punktdan bir sistemada aniqlangan geodezik punktlar (reperlar) tizimi;

\*«Elektron hukumat» - davlat organlarining jismoniy va yuridik shaxslarga axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash yo'li bilan davlat xizmatlari ko'rsatishga doir faoliyatini, shuningdek, idoralararo elektron hamkorlik qilishni ta'minlashga qaratilgan tashkiliy - huquqiy chora - tadbirlar va texnik vositalar tizimi.

FMMI yaratishdan maqsad:

\*fazoviy ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va taqdim etish bilan bog'liq jarayonlarni amalgalash;

\*jamiatning foydalanishi cheklanmagan barcha turdag'i geografik axborotga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash;

\*turli sohalarda boshqaruva qarorlarini qo'llab - quvvatlash tizimlarida fazoviy ma'lumotlar va geoaxborot texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirish;

\*fuqarolar, tashkilotlar, davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlarining fazoviy ma'lumotlarning davlat va hududiy resurslaridan yerkin foydalanishini ta'minlaydigan shart - sharoitlarni yaratish va ulardan samarali foydalanish.

FMMI yaratish va yuritishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

\*fazoviy ma'lumotlar servislari va kadastr xizmatlarini ko'rsatish, idoralararo elektron hamkorlik uchun zarur bo'lgan yer uchastkalari, binolar va inshootlar, geografik obyektlar nomlarini o'z ichiga olgan raqamli ma'lumotlarni saqlash;

\*kadastr xizmatlarini ko'rsatishda jismoniy va yuridik shaxslarni identifikatsiyalash;

\*kadastr obyektlari va unga taalluqli bo‘lgan axborot tizimlarini «Elektron hukumat» tizimining idoralararo integratsiya platformasiga birlashtirish orqali amalga oshirish;

\*yagona milliy geoaxborot manbai sifatida bazaviy, sohaga oid fazoviy ma’lumotlar, metama’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, shuningdek, FMMIni yaratish, faoliyat ko‘rsatishi va rivojlantirishni tartibga soladigan normativ - huquqiy hujjatlarni, texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi hujjatlarni (texnik reglamentlar, standartlar va klassifikatorlarni) ishlab chiqish va qabul qilish;

\*O‘zbekiston Respublikasi hududida yagona koordinatalar tizimini ishlash holatida saqlab turish va foydalanish, shu jumladan, doimiy faoliyat ko‘rsatadigan sun‘iy yo‘ldosh orqali kuzatish stansiyalari tarmog‘ini yaratish, yuritish va undan foydalanish hisobiga ta’minalash;

\* davlat kadastrlari, kartografik va boshqa turdag‘i monitoringlarni yuritish asosida O‘zbekiston Respublikasi hududida bazaviy fazoviy ma’lumotlarni yaratish va dolzarblashtirish;

\* davlat boshqaruv organlari va xo‘jalik birlashmalari, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tomonidan tarmoqqa oid (idoraviy) vazifalarni hal qilish uchun zarur sohaga oid fazoviy ma’lumotlarni yaratish, yuritish va dolzarblashtirish;

\*fazoviy ma’lumotlarning turli to‘plamlaridan foydalanishda ularni o‘zaro taqqoslash va (interoperabelligini) ta’minalash;

\*FMMIda mavjud fazoviy ma’lumotlar va servislardan foydalanib yangi fazoviy ma’lumotlar va geoaxborot tizimlari to‘plamlarini yaratish imkoniyatini ta’minalash hisobiga fazoviy ma’lumotlar to‘plamlarini yaratishda takrorlanishlarning oldini olish;

\*FMMIni davlat organlari axborot - texnologik infratuzilmasi bilan integratsiya qilish;


\*respublika hududida joylashgan kapital qurilish, transport va muhandislik infratuzilmasi obyektlari, sanoat va xo‘jalik obyektlari to‘g‘risida, ma’muriy - hududiy tuzilma, hududning kadastrga oid bo‘linishi, yerdan foydalanish va yer tuzish to‘g‘risidagi fazoviy ma’lumotlarni to‘plash uchun yerni masofadan turib zondlash materiallari, geoaxborot tizimlaridan samarali foydalanishni ta’minalash;

\*hududiy rejalashtirish, hududlarni masofadan zondlash, yerdan foydalanishni, o‘rmon va suv fondlarini boshqarish, tabiiy va texnogen tusdagi favqulodda vaziyatlarni prognoz qilish hamda ularning oqibatlarini bartaraf etishda tezkor qarorlarni qabul qilish, harbiylashtirilgan tuzilmalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil qilish, tabiiy resurslarni muhofaza qilish, ekologiya, turizm masalalarini hal qilish uchun kartografik asoslarni yaratish;

\*Internet jahon axborot tarmog‘ida FMMI geoportalini shakllantirish hisobiga foydalanuvchilar uchun ochiq foydalanishga ruxsat berilgan bazaviy va sohaga oid fazoviy ma’lumotlardan foydalanishni ta’minalash;

\*sifatli va kafolatlangan servislar va ma’lumotlarni taqdim etish.

Quyida Respublika bo‘yicha elektron xaritasi yaratilgan yer uchastkalari soni va maydon ko‘rsatkichlari keltirilgan.



2.1.1-rasm. Respublika bo‘yicha elektron xaritasi yaratilgan yer uchastkalari soni va maydoni.

FMMI quyidagi prinsiplar asosida yuritiladi:

\*fazoviy ma’lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish, FMMIni yaratish, qo‘llab - quvvatlash va rivojlantirish sohasidagi davlat boshqaruvi;

- \*FMMIni yaratish, qo'llab - quvvatlash va rivojlantirish jarayonlarining ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish, atrof va tabiiy muhitni muhofaza qilish, iqtisodiy xavfsizlik, davlat boshqaruvi, O'zbekiston Respublikasining mudofaa qobiliyati va milliy xavfsizligi ustuvor vazifalarini hal qilishga bo'yusendirilganligi;
- \*davlat axborot resurslarini va yangi bazaviy fazoviy ma'lumotlarni yaratishda davlat organlari, shu jumladan, fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchi boshqa shaxslar tomonidan tartibga solingan koordinatalar tizimlaridan hamda mavjud bazaviy fazoviy ma'lumotlardan foydalanish majburiyligi;
- \*fazoviy ma'lumotlarni yaratish, yangilash, ishlov berish, saqlash, taqdim etish, ularni integratsiya qilish va ulardan foydalanishni ta'minlaydigan FMMI administratori, fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqaruvchilar, saqlovchilar va foydalanuvchilarning faoliyatini muvofiqlashtirish;
- \*barcha fazoviy obyektlar bo'yicha fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni shakllantirish metodologiyasining birligi;
- \*davlat axborot resurslarini yaratishda fazoviy obyektlarning koordinatalari ko'rsatilishining majburiyligi;
- \*fazoviy ma'lumotlarni yaratish, ulardan foydalanish va sifatini nazorat qilish tartib - taomillarini standartlashtirish;
- \*fazoviy ma'lumotlarni yaratish va ulardan foydalanish sohasidagi texnik reglamentlar, milliy standartlarning tegishli xalqaro standartlar bilan uyg'unligi;
- \*fazoviy ma'lumotlarning dolzarbligi, ishonchliliqi, to'liqligi, yaxlitligi va aniqlligi;
- \*bazaviy fazoviy ma'lumotlarning yagona bankidan, tartibga solingan koordinatalar tizimidan, yagona texnik reglamentlardan va standartlardan foydalanish asosida fazoviy ma'lumotlarning mosligi;
- \*bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlarning integratsiyalashuvi;
- \*fazoviy ma'lumotlar servislari va to'plamlari hamda ularning metama'lumotlarining interoperabelligi;
- \*axborotning ochiqligi va shaffofligi;

\*bazaviy fazoviy ma'lumotlar hamda metama'lumotlarning barcha manfaatdor subyektlar uchun ochiqligi va ommaviyligi hamda ularni yaratish, yig'ish, saqlash, taqdim etish va tarqatishning qonuniyligi.

FMMIni yuritish bo'yicha ishlar mas'ul organlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan ajratilgan mablag'lar doirasida hamda qonunchilikda taqiqilanmagan boshqa manbalar hisobidan moliyalashtiriladi.



## **2.2. Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishda GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha dasturlar va axborot tizimlari.**

Hozirgi kunda hayotimizni informatsion tizimlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa intrnet kirib bormagan soha qolmadidi. Shu qatorda kadastr sohasida ham hozirgi kunda intrnet hamda turli dasturlardan keng foydalanib kelinmoqda. Bular nafaqat jismoniy va yuridik shaxslarga, balkim kadastr xodimlariga ancha qulayliklar yaratmoqda. O'zbekiston Respublikasi kadastr sohasida shu kungacha quyidagi dasturlardan foydalanilgan va foydalanib kelinmoqda:



1. Ko'chmas mulk - 3 yoki 1C dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2001 yildagi "O'zbekiston Respublikasi hududlarini kadastr bo'yicha bo'lish hamda yer uchastkalari, binolar va inshootlarning kadastr raqamlarini shakllantirish tartibi to'g'risi"da 492 – son qaroriga asosan ushbu dasturdan hozirgi kungacha foydalanib kelinmoqda. Ushbu dasturga bino va inshootlarning barcha kadastr ma'lumotlari kiritilib boriladi. Masalan: bino inshootning manzili, yuridik egasi yoki foydalanuvchisi, umumiyl maydoni, qurilish osti maydoni, huquqiy asosi va boshqalar.
2. ArcGIS dasturi ancha vaqtidan buyon foydalanib kelinayotgan, keng imkoniyatli dastur hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasining 08.10.2014 yilda Yustitsiya vazirligida ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 2618 qarori\16\ga asosan dasturdan foydalaniladi.

Ushbu dastur bo'yicha har bir tumanda alohida mutaxassis mavjud bo'lib, dastur bo'yicha kiritilayotgan ma'lumotlar Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi hamda viloyat boshqarmalari tomonidan nazorat qilib boriladi. Dastur keng qo'lamli bo'lib ushbu dasturdan nafaqat kadastr sohasi balki boshqa sohalarda ham foydalanib kelgan.

3. QGIS dasturi yuqoridagi ArcGis dasturi bilan deyarli bir xil bo'lib, ArcGis dasturi bazasi kattaligi sabab yordamchi dastur sifatida qisqa muddat sinov tarzida foydalanildi.

4. UZKAD tizimi - O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-avgustdaggi 198 – sonli Prizident Farmoni<sup>17</sup>ga asosan 2023-yil 1-yanvardan boshlab yuritib kelinayotgan Kadastr va ko'chmas mulklarni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi (UZKAD tizimi) ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri hamda ko'chmas mulk obyektlari haqidagi ma'lumotlar yuritiladigan, ma'lumotlarining haqiqiyligi va ishonchliligi davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona axborot tizimi.

Zamonaviy axborot vositalari jadallik bilan rivojlanayotgan vaqtida, uydan yoki ish joyidan chiqmagan holda turli davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish mumkin. Shu o'rinda kadastr sohasi bo'yicha quyidagi foydali bo'lgan intrnet servis sahifalari mavjud:

#### «YERELEKTRON» axborot tizimi


Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri.

Bo'sh turgan yer uchastkasiga doir ma'lumotlarni shakllantirish va kelishish «YERELEKTRON» avtomatlashtirilgan axborot tizimi (keyingi o'rinnlarda - «Yerelektron» AAT) orqali amalga oshiriladi.

Bo'sh turgan yer uchastkasining zaxiraga olinganligi hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazuvchi kadastr organlari tomonidan tegishli tuman (shahar) hokimligi nomiga davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi ushbu yer uchastkasini «Yerelektron» AATga kiritishning majburiy sharti hisoblanadi.


«YERELEKTRON» avtomatlashtirilgan axborot tizimi - yer uchastkalarini berish bo'yicha materialarni toplash, ko'rib chiqish va unga kiritilgan vakolatli organlar hamda tashkilotlar bilan kelishish tartib - taomillarini amalga oshirish uchun avtomatlashtirilgan axborot tizimi hisoblanadi.

Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasi ajratish bo'yicha materiallar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bo'y sunuvidagi Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi hududiy boshqarmasi tomonidan tayyorlanadi.



#### Yerelektron

Qidiruv xiziqiga mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning davlat reyestri  
Yer uchastkasini ajratish uchun  
Shakllantirish uchun  
Tug'ilgangan belgilangan buyurtmachi  
Organlari



2.1-rasm. «YERELEKTRON» avtomatlashtirilgan axborot tizimining bosh sahifasi

Mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari qarori bilan belgilangan buyurtmachi yer uchastkasini ajratish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimligiga buyurtma beradi.

Davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkasi ajratish bo'yicha materiallar Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan «YERELEKTRON» AAT orqali vakolatli tashkilotlar bilan kelishiladi.

yer uchastkasini ajratish haqidagi hujjalarning yig'majildiga quyidagilar ilova qilinadi:

\*Qurilish bosh boshqarmasining ijobiy xulosasi;

\*Kengashning kelishuvi va vakolatli tashkilotlarning ijobiy xulosalari va kelishuvlari olingandan keyin;

\*Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimi ikki kun davomida yer uchastkasini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun ajratish haqida mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining qarorlarini ishlab chiqish;

\*kelishish va ro'yxatdan o'tkazishning yagona elektron - «E-qaror» tizimi orqali qaror qabul qiladi.

Bugungi kunda «YERELEKTRON» avtomatlashtirilgan axborot tizimida yer uchastkalarini realizatsiya qilish uchun asos bo'lvchi amaldagi normativ - huquqiy hujjatlari quyidagilar kiradi:

\*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

14.02.2022 yildagi "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiylashtirish to'g'risida"gi 71-sonli qarori\18\;

\*O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslariga doimiy foydalanish (egalik qilish), ijara va meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish huquqi asosida tegishli bo'lgan yer uchastkalarini xususiylashtirish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishga doir ma'muriy reglamenti 19\;

\*Tadbirkorlik va shaharsozlik faoliyatini amalga oshirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi va ijara huquqi asosida elektron onlayn-auksion orqali realizassiya qilish tartibi to'g'risidagi nizom \20\;

\*Yakka tartibda uy - joy qurish va uy - joyni obodonlashtirish uchun yer uchastkalarini mulk huquqi asosida elektron onlayn - auksion orqali realizatsiya qilish tartibi to'g'risidagi nizomlar\ 21\;

\*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

27.08.2021 yildagi "Yer uchastkalarini jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamentini tasdiqlash to'g'risida"gi 543-sonli qarori \22\;

«YERELEKTRON» tizimi asosan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmag'an bo'sh turgan yer uchastkalarini berish tizimi hisoblanib, undan bo'sh yer uchastkasida

tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanmoqchi bo'lgan fuqarolardan takliflar berilishi xam mumkin.

Buning uchun yuridik va jismoniy shaxslar <https://yerelektron.uz> onlayn sayti orqali kirib, belgilangan tartibda o'z takliflarini berishlari, shuningdek bo'sh yer uchastkalarining bugungi kundagi holatini xam ko'rishlari mumkin bo'ladi.

#### GEOPORTAL.uz tizimi

geoportal.uz Saytda yerdagi oldingi va hozirgi holatlarni avtomatik tarzda tahlil qilib boriladi va tahlil natijalariga asosan vektor ma'lumotlarini geoportalda animatsjon shaklda aks ettirib boriladi.

Kadestr agentligi hamda Davlat kadastrlari palatasi tomonidan aholiga interaktiv xizmat ko'rsatish maqsadida "Geoportal" tizimi joriy etildi. "Geoportal" tizimidan maqsad - xarita tuzish ishlarida inson omilini kamaytirish hamda yuqori aniqlikda ma'lumotlar olish uchun zamонави texnologiyalar, ya'ni masofadan zondlash (remote sensing), Global navigatsion sun'iy yo'ldoshlar tizimlaridan (GNSS) foydalanib mavjud ma'lumotlarga solishtirish orqali noqonuniy egallangan maydonlarni aniqlash, navbatchi qishloq xo'jaligi xaritalarini yuritish, har yillik hosil uchun qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirish, qishloq xo'jaligi ekinlari ekilgan maydonlarda monitoringini olib borish, tahlil qilish va prognozlash ishlari, davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish uchun asos yaratishni avtomatlashtirishdan iborat.

Tizimda nafaqat davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish ma'lumotlarini to'plash, tahlil qilish, balki shu ma'lumotlar asosida aholiga interaktiv xizmatlar taqdim etish ham ko'zlangan.

Kadestr agentligi O'zbekiston Respublikasining ommaviy geoportali mazmun, qulaylik, mavjud imkoniyatlar, ishonchlilik, jumladan, veb - saytlardagi xavfsizlik bilan bog'liq masalalar uchun javobgar. Ommaviy geoportal foydalanuvchilari tomonidan shaxsga doir olingen mau'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonuni \23\ talablariga binoan saqlash va ularga ishlov berish uchun mas'uldirilar. Davlat boshqaruvi organlari va xo'jalik birlashmalari tomonidan idoralararo elektron hamkorlik orqali ma'lum bo'lgan

ma'lumotlarning va shaxsga doir ma'lumotlarning ma'lumot taalluqli bo'lgan subyektlarning yozma yoki elektron rozilgisiz oshkor etilishiga hamda (yoki) uchinchini tomonqa taqdim etilishiga yo'l qo'yilmaydi. Axborot tizimi foydalanuvchisi elektron hamkorlik doirasida olinadigan ochiq ma'lumotlarning saqlanishini va himoyasini qonunchilikda belgilangan tartibda ta'minlashi shart.

#### DAVREYESTR.uz axborot tizimi

«DAVREYESTR» tizimi «Geoinfocom» davlat unitar korxonasi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bugungi kunda, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan <https://davreyestr.uz> onlayn sayti orqali kirib, quyidagi xizmatlardan foydalanishlari mumkin bo'ladi:

- DAVREESTR.UZ**
  - \*ko'chmas mulk obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlarni olish;
  - \*nomida uy - joy bor yoki yo'qligi to'g'risida ma'lumotlar olish;
  - \*ko'chmas mulk obyektiqa ta'qiq qo'yilgan yoki qo'yilmaganligini to'g'risida ma'lumot olish;
  - \*binolar - inshootlarning mansubligi va tarkibi to'g'risida ma'lumotlar olish;
  - \*turar - joyning maydoni bo'yicha ma'lumot olish;
  - \*kadastr qiymati to'g'risida ma'lumot berish;
  - \*ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risidagi Davlat reyestridan ko'chirmani olish;
  - \*kadastr pasportini shakllantirish;
  - \*ijara shartnomasini ro'yxatdan o'tkazish;
  - \*servitutni ro'yxatdan o'tkazish.

2.2.2-rasm. DAVREYESTR.uz axborot tizimi bosh sahifasi

Davlat reyestridan mavjud ko'chirmani yuklab olish uchun mulkdor o'zining shaxsiy kabineti orqali bos sahifada joylashgan qidiruv paneliga ko'chmas mulk obyekting kadastri raqamini kiritadi, so'ngra rasmda paydo bo'lgan kodni kiritib, izlash tugmasi bosiladi. Izlash tugmasini bosganda ko'chmas mulk obyekti haqidagi ma'lumotlar aks etgan maydon vujudga keladi, bu yerdan ko'chirmani yuklab olish degan tugmani bosib tegishli ko'chirmani yuklab olishi mumkin.

Bugungi kunda «DAVREYESTR» tizimini yuritish uchun asos bo‘lувчи amaldagi normativ huquqiy hujjatlariga quyidagilar kiradi:

\*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

02.09.2020 yildagi “Kadastr sohasida ayrim davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma’muriy reglamentlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

535-sonli qarori \24\;

\*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

29.12.2018 yildagi “Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1060-sonli qarori \12\;

\*O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2019 yildagi “Ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ - 4270-sonli qarori \25\;

\*O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining

18.05.2021 yildagi “Vazirlar Mahkamasining «Davlat kadastro sohasida davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to‘g‘risida» 2014-yil 10-iyuldaggi 186-son qaroriga o‘zgartirishlar kiritish haqidagi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Er hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2020-yil 7-sentyabrdagi PF-6061-son Farmoni)”gi 306-sonli qarori\ 1\.

### **2.3. Kadastr va ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimi - UZKAD**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 22-avgust kuni o‘tkazilgan tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti doirasida belgilangan mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini yaratish, ushbu huquqlarni cheklayotgan omillarni bartaraf etish bo‘yicha vazifalar ijrosini ta‘minlash maqsadida, shuningdek, 2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasiga muvofiq:

\*2023-yil 1-yanvardan boshlab Kadastr va ko‘chmas mulklarni ro‘yxatdan o‘tkazish integratsion axborot tizimi (keyingi o‘rinlarda - UZKAD tizimi) ko‘chmas mulk

obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestri hamda ko‘chmas mulk obyektlari haqidagi ma’lumotlar yuritiladigan, ma’lumotlarining haqiqiyligi va ishonchliligi davlat tomonidan kafolatlanadigan yagona axborot tizimi etib belgilandi.

Eslatma:

\*UZKAD tizimiga Garov reyestri, «Notarius» avtomatlashtirilgan axborot tizimi, Ko‘chmas mulk obyektlari manzillari yagona reyestri, Tadbirkorlik subyektlari yagona davlat reyestri, O‘zbekiston Respublikasi soliq to‘lovchilarining yagona reyestri, «Davlat mulki» axborot tizimi, Nodavlat notijorat tashkilotlar va ularning bo‘linmalari reyestri, litsenziyalar, ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar va xabarnomalar reyestrlari va ko‘chmas mulk obyektlariga oid ma’lumotlar yuritilayotgan boshqa barcha davlat axborot tizimlari integratsiya qilinadi hamda real vaqt rejimida onlayn ma’lumot almashinuvi yo‘lga qo‘yiladi;

\*onlayn ma’lumot almashinuvi paytda ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquq qog‘oz shaklida yoki boshqa axborot tizimida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilganligi, shu sababli UZKAD tizimida bo‘limganligi aniqlangan taqdirda, uch kun ichida ushbu huquq UZKAD tizimida haq undirmsandan va ariza talab qilmasdan davlat ro‘yxatidan o‘tkaziladi va ma’lumot taqdim etiladi;

\*ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlarni rasmiylashtirish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish UZKAD tizimidagi ma’lumotlar asosida amalga oshiriladi, ko‘chmas mulk haqidagi ushbu tizimda bo‘limgan boshqa ma’lumotlarni talab qilishga yo‘l qo‘yilmaydi, ma’lumotlarning haqqoniyligi davlat tomonidan kafolatlanadi, bundan qonunda nazarda tutilgan hollar mustasno;

\*jismoniy va yuridik shaxslarga soliqlarni hisoblash, notarial harakatlarni rasmiylashtirish, davlat xizmatlari, bank, kommunal, sug‘urta va boshqa ommaviy xizmatlarni ko‘rsatishda ko‘chmas mulkka oid barcha ma’lumotlar tegishli davlat organlari hamda xizmat ko‘rsatuvchi shaxslar tomonidan UZKAD tizimidan olinadi;


\*Ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarning davlat reyestriga kiritilgan yozuvlar va ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha «mulk tarixi»ga oid ma’lumotlar jismoniy va yuridik shaxslar uchun ochiq bo‘ladi va ulardan haq evaziga Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalni orqali foydalilanadi, davlat siriga oid hamda

«Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining Qonunida nazarda tutilgan ma'lumotlar bundan mustasno.

\*Kadastr agentligi qog'oz shaklida yoki boshqa axborot tizimlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar haqidagi ma'lumotlarni har bir ko'chmas mulk obyektni bosqichma - bosqich identifikasiyalagan holda UZKAD tizimiga to'liq o'tkazadi.

\*Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar haqidagi ma'lumotlarni UZKAD tizimiga to'liq o'tkazish bo'yicha Kadastr agentligi mas'ul bo'lgan amaliy chora - tadbirlar. Qog'oz shaklida yoki boshqa axborot tizimlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilgan ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlar to'g'risidagi ma'lumotlar har bir ko'chmas mulk obyektni identifikasiyalagan holda quyidagi bosqichlarda UZKAD tizimiga to'liq o'tkaziladi:


- 1- bosqich - ko'p kvartirali uylar (2022 yil dekabr);
- 2- bosqich - davlat tashkilotlariga tegishli obyektlar va ijtimoiy obyektlar (2023 yil iyun);
- 3- bosqich - tijorat tashkilotlariga tegishli obyektlar (2023-yil dekabr);
- 4- bosqich - yakka tartibdagi turar joylar va boshqa obyektlar (2024-yil dekabr).



2.3.1-rasm. UZKAD axborot tizimiga kirish oynasi

Mamlakatimizda ko'chmas mulk obyektlarini xatlovdan o'tkazish va yerdan foydalanuvchilar chegaralarini aniqlash hamda ularga oid ma'lumotlarni tegishliliqi bo'yicha UZKAD axborot tizimiga kiritish bo'yicha tizimli ishlar amalga

oshirilmoqda. Hozirgi kunda Davlat kadastrlar palatasi boshchiligidagi viloyat boshqarmasi hududiy filial mas'ullari bilan birgalikda xatlov ishlari olib borilmoqda. Xatlovdan ko'zlangan maqsad UZKAD tizimida yer fondining to'g'ri hisobga olinshini tahlil qilish va aniqlangan kamchiliklarning bartaraf etilishini ta'minlashdan iborat.



2.3.2-rasm. Dastur va axborot tizimlari bilan ishlash jarayoni



2.3.3 - rasm. GoogleEarth saytidan olingan tasvir

### **III. bob. BINOLAR VA INSHOOTLAR KADASTRINI YURITISHNI GAT TEXNOLOGIYARI ORQALI TAKOMILLASHTIRISH**

#### **3.1. Ilmiy - tadqiqot olib borilgan hudud haqida ma'lumot**

##### **(Pskent tumani misolida)**

Monografiyada ilmiy - tadqiqot olib borilgan mavzu “Binolar va inshootlar kadastrini yuritishni GAT texnologiyalari asosida takomillashtirish” (Pskent tumani misolida) uchun Pskent tumani obyekt sifatida tanlangan.

Pskent tumani - Toshkent viloyatidagi tuman bo‘lib 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan. Chegara uzungligi - (30,6 km). Shundan, Tojikiston Respublikasi bilan (5,84 km), Olmaliq bilan (9.87 km), Ohangaron bilan (4.18 km), O‘rta Chirchiq bilan (3.48 km), Oqqo‘rg‘on bilan (2.9 km), Bo‘ka bilan (3.97 km) chegaradosh. Maydoni 78 mln 658 ming kv.km. Aholisi 98 484 ming kishi. Pskent tumanida 1 shahar (Pskent), 6 qishloq fuqarolari yig‘ini (Do‘ngqo‘rg‘on, Kerovchi, Murotali, Koriz, Oqtepa, Sayd) bor. Tuman markazi - Pskent shahri.

*Tabiat.* Tuman hududi Qurama tog‘ tizmalarining etaklarida va Ohangaron daryosining chap sohilida, Chirchiq Ohangaron vodiysi boshlanadigan yerda joylashgan. Yer usti sharqdan g‘arbg‘a tomon qiya. O‘rtacha balandligi 300 - 2500 m. Sharqiy qismi Qurama tog‘lari, adirlar, cho‘l, yaylovlar bilan band. Relyefi bir oz past - baland, eski daryo o‘zanlari, jar va jilg‘alar bilan parchalangan. Tumanning g‘arbiy qismida sug‘oriladigan yerlar joylashgan. Tuproqlari, asosan, tipik bo‘z tuproqlar, pastqam joylarda o‘tloqi, botqoq - o‘tloqi, allyuvial tuproqlar. Tumanning chekka sharqida to‘q bo‘z tuproqlar va qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan bo‘lib, bu yerdan yaylov sifatida foydalaniadi. Kurama tog‘idan Ohangaron daryosi oqib tushadi, tog‘ soylaridan Qizota, Kovuldi, Olmaliqsoy, Parganda, Qoraqiyosoy oqib o‘tadi. Anhor, Bo‘ka, Sho‘r, O‘rtaariq, Bo‘rjar singari qadimiy kanallar, Shimolda Toshkent kanali bor. Shimoliy chegarasi bo‘ylab Toshkent suv ombori («Toshkent dengizi») joylashgan.

*Iqlimi.* Iqlimi mo‘tadil issiq, quruq. Yillik o‘rtacha harorat 13,5°; iyulning o‘rtacha harorati 27°, eng yuqori harorat i 41,1°, yanvar oyi harorati -1,0°, eng past harorat -27, 2°. Vegetatsiya davri 210 - 220 kun. Yillik yog‘in 350 mm. Yovvoyi

o‘simgiliklardan tekisliklarda qamish, dashtda shuvoq - sho‘ra, tog‘ oldi yerlarida bo‘tako‘z, daryo va soyldarning vodiylarida archa, do‘lana, zarang, olcha, olma, chetan (ryabina) va boshqalar o‘sadi. Yovvoyi hayvonlardan daryo qayirlarida bo‘ri, chiyabo‘ri, yumronqoziq, quyon, to‘qay mushugi, o‘rdak, g‘oz, qirg‘ovul, tog‘larda kaklik, bedana, mayna, loyxo‘rak, suvilonlar, ondatralar yashaydi. Tumanning sharqiy qismida foydali qazilmalardan mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, molibden va boshqa nodir metall rudalari, flyuorit, ohaktosh, shag‘al, qum va boshqa turli xil qurilish materiallari qazib olinadi.


*Aholisi.* Aholisi asosan, o‘zbeklar, shuningdek, tojik, tatar, rus va boshqa millat vakillari ham yashaydi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km kvadratga 109,2 kishi. Shaharliklar 31,4 ming kishi, qishloq aholisi 54,9 ming kishi. Xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Sanoat, transport, aloqa, qurilish korxonalari bor. Shirkat va dehqon-fermer xo‘jaliklari paxtachilik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, chorvachilik bilan shug‘ullanadilar. Tumanda 66 davlat, 1243 nodavlat korxonasi, 1 qo‘shma korxona, 10 aksiyadorlik jamiyat, 2 jamoa, 8 shirkat xo‘jaligi, 970 fermer xo‘jaligi faoliyat ko‘rsatadi.

Tumanning sug‘oriladigan ekin maydoni. Tumanning sug‘oriladigan ekin maydoni 20,7 ming ga, shu jumladan, 10 ming ga yerga paxta, 8,4 ming ga yerga don, 420 ga yerga poliz va sabzavot ekinlari ekiladi.

Tuman yer fondi bo‘yicha:

Tuman umumiyyat maydoni - 80372 ga

Qishloq xo‘jaligi yerlar - 56525 ga



3.1.1. – rasm. Pskent tumani kartasi

Aholi punktlarining yerlari - 6918ga

Sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa yerlar - 2267ga

Tarixiy - madaniy yerlar - 23.2ga

O'rmon fondi - 2209ga

Suv fondi - 1325ga

Zaxira yerlar - 120ga

### **3.2. Pskent tumanda bino va inshootlarning kadastr pasportini shakllantirish va davlat ro'yxatidan o'tkazish**

Ko'chmas mulk obyekti mulkdorlari yoxud ushbu obyekt bo'yicha ashyoviy huquqlar egalari bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar yoki ularning vakolatli vakillari ko'chmas mulk obyekti bo'lgan mulk huquqi yoki boshqa ashyoviy huquqlar vujudga kelgan, boshqa shaxsga o'tgan, cheklangan yoki bekor bo'lgan yoki ko'chmas mulk obyektining huquqiy holati o'zgargan -kundan boshlab bir oy

muddatda ko'chmas mulk obyekti bo'lgan huquqni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 29-dekabrdagi 1060 - son "Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi qarori\2\ga asosan davlat ro'yxatidan o'tkazishlari shart.

Buning uchun yuridik yoki jismoniy shaxslar offlayn Davlat xizmatlari markazi orqali yoki onlayn tarzda yagona interaktiv davlat xizmatlari partali orqali ariza berishlari mumkin. Avval kadastr pasporti shakllantiriladi so'ng davlat ro'yxatidan o'tkaziladi.

Kadastr pasportini shakllantirish xizmati barcha shaxslarga ko'rsatiladigan yarim avtomatik jarayon.

Bu qanday ishlaydi?

1. Ariza beruvchi YaIDXPda ro'yxatdan va/yoki avtorizatsiyadan o'tadi va so'rov yuboradi.
2. Mutaxassis organ joylardagi o'lchovlarni amalga oshiradi va Yagona Interaktiv Davlat Xizmati Portal(YaIDXP)i orqali elektron shaklda talabgorga to'lov uchun invoys yuboradi.
3. Ariza beruvchi to'lovni amalga oshiradi.
4. Vakolatli organ kadastr pasportini shakllantiradi va YaIDXP orqali arizachiga xabarnoma yuboradi.

Xizmat uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 24-iyuldaggi 623- son "Kadastr hujjatlarini tayyorlash bo'yicha davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqalashtirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to'g'risida" 2014-yil 10-iyuldaggi 186-son qaroriga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida" qarori bilan o'rnatalilgan.\26

Kadastr pasportini tayyorlash va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun narxlar:

1. Ko'p kvartirali uydagi kvartira - Obyektning 1 kvadrat metr maydoni uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 foizi, 25 foizga ko'paytirilgan holda;

2. Yakka tartibdagi turar- joy - Obyektning 1 kvadrat metr maydoni uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 foizi, 25 foizga ko‘paytirilgan holda;
  3. Yer uchastkasini ajratish bo‘yicha ish mavjud bo‘lganda, yakka tartibda turar- joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi - Bepul;
  4. Yer uchastkasini ajratish bo‘yicha ish mavjud bo‘lmaganda, yakka tartibda turar- joy qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi - Bazaviy hisoblash miqdorining 1,25 baravari;
  5. Dehqon xo‘jaligini yuritish uchun ajratilgan yer uchastkasi - Bazaviy hisoblash miqdorining 1,25 baravari;
- Noturar obyektlarini qurish uchun ajratilgan yer uchastkasi - Bazaviy hisoblash miqdorining 1,25 baravari;
6. Qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun ajratilgan yer uchastkasi - Bazaviy hisoblash miqdorining 2,5 baravari.

Onlayn tarzda my.gov.uz sayti orqali to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki kadastr.uz sayti orqali ko‘chmas mulk obyektlariga bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish quyidagiCHA amalga oshiriladi:

1. Ariza beruvchi YaIDXPda ro‘yxatdan va/yoki avtorizatsiyadan o‘tadi va so‘rov yuboradi.
2. Mutaxassis organ joylardagi o‘lchovlarni amalga oshiradi va YaIDXP orqali elektron shaklda talabgorga to‘lov uchun invoys yuboradi.
3. Ariza beruvchi to‘loymi amalga oshiradi.
4. Vakolatli organ kadastr pasportini shakllantiradi va YaIDXP orqali arizachiga xabarnoma yuboradi.



2.1-rasm. Ko‘chmas mulk obyekting kadastr pasporti

- Bino va inshootlarga mulk huquqining vujudga kelishini va boshqa shaxsga o‘tishini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardan iborat:
- \*qurilishi (rekonstruksiyasi) tugallangan binolar va inshootlarni foydalinishga qabul qilish dalolatnomasi;
  - \*notarial tartibda tasdiqlangan bino, inshootning oldi - sotdi shartnomasi;
  - \*2019 yil 1 yanvargacha tuzilgan bino va inshoot bo‘yicha topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birga oldi - sotdi shartnomasi;
  - \*korxonaning topshirish - qabul qilish dalolatnomasi bilan birga notarial tartibda tasdiqlangan oldi - sotdi shartnomasi;
  - \*notarial tartibda tasdiqlangan lizing shartnomasi;
  - \*bino, inshoot, turar joyni hadya etish to‘g‘risidagi notarial tartibda tasdiqlangan shartnomasi;
  - \*bino, inshoot, turar joyni ayriboshlash to‘g‘risidagi notarial tartibda tasdiqlangan shartnomasi;
  - \*turar joyni boshqa shaxsga renta to‘lovi sharti bilan o‘tkazilishi nazarda tutiladigan notarial tartibda tasdiqlangan renta shartnomasi;
  - \*xususiylashtirilgan davlat binosi, inshooti, turar joyini tasarruf etish huquqi bilan mulk huquqini beruvchi davlat orderi;
  - \*notarial tartibda tasdiqlangan meros qilib olish huquqi va yer - xotinlarning umumiy mulki bo‘lgan bino, inshootning tegishli qismiga bo‘lgan mulk huquqi to‘g‘risidagi guvohnoma;
  - \*notarial tartibda tasdiqlangan ko‘chmas mulk obyektini yuridik shaxslarning ustav jamg‘armasiga ulush sifatida berish shartnomasi;
  - \*ko‘chmas mulk obyektini muassisiga uning ulushini qaytarib berish sifatida notarial tartibda tasdiqlangan shartnomasi;
  - \*sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etishda ko‘chmas mulk obyektini realizatsiya qilish bo‘yicha auksion natijalari haqida bayonnoma;
  - \*tuman(shahar) hokimining turar joyni noturarjoy toifasiga o‘tkazishga ruxsati;
  - \*tuman(shahar) qurilish bo‘limining noturar joy binosini turar joy toifasiga o‘tkazishga ruxsati;

\*sud qarori yoki davlat ijrochisining qarori yoxud davlat ijrochisi tomonidan tasdiqlangan undiruvchi va qarzor o'rtasida tuzilgan bino va inshootni berish dalolatnomasi.

Xorijiy yuridik yoki jismoniy shaxsning mulki bo'lgan binolar va inshootlar sotilgan taqdirda binolar va inshootlarga bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish binolar va inshootlarni sotishdan olingen daromadlar bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotnomalar taqdim etilgan taqdirda amalga oshiriladi, binolar va inshootlar O'zbekiston Respublikasida davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxsga sotilgan hollar bundan mustasno.

Binolar va inshootlarni sotishdan olingen daromadlar bo'yicha yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i yoki jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i to'langanligi to'g'risidagi axborot soliq organlari tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organga axborot - kommunikatsiya tizimi orqali bir kunlik muddatda taqdim etiladi.

Xizmat narxi va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-iyuldaggi 186 - sonli qarori\27\ga asosan ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huqular va ular bo'yicha tuzilgan bitimlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish bo'yicha davlat xizmatlari narxi belgilangan. Xizmat ko'rsatish muddati 2 kun.

Natijani olish usullari Ko'chmas mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishga ariza yuborish Yagona portal orqali foydalanuvchi shaxsiy kabinetiga va/yoki foydalanuvchi Yagona portalda ro'yxatdan o'tishda ko'rsatgan pochta manziliga yuboriladi, shuningdek kadastrning hududiy organlaridan shaxsan kelib olib ketishi mumkin. Xizmat natijasi Arizachiga (arizachidan) ko'chmas mulk (yer uchastkalari, binolar va inshootlar) huquqining yuzaga kelishi (to'xtatilishi, ko'chirilishi) to'g'risidagi yozuvni ko'chmas mulk (er uchastkalari, bino va inshootlar) huquqi. Yagona davlat reyestriga kiritish va Ko'chmas mulkka (yer uchastkalari, bino va inshootlar) huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish guvohnomasini taqdim etish. Rad etish sabablari Ko'chmas mulk (yer uchastkalari, binolar va

inshootlar)ning tegishliligi to'g'risida kelishmovchilikning yuzaga kelishini tasdiqlovchi hujjatlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda mavjudligi. Qonunchilikda belgilangan tartibda ko'chmas mulk (yer uchastkalari, binolar va inshootlar)ni olib qo'yish to'g'risidagi ma'lumotlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organda mavjudligi. Huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazish jarayoni to'xtatilganida taqdim etilgan materiallardagi kamchiliklar bartaraf etilmaganligi. Huquqni yuzaga kelish jarayonini belgilamaydigan hujjatlarni taqdim etilishi. Ko'chmas mulkka (yer uchastkalari, binolar va inshootlar) huquqni to'xtatilishi. Shikoyat arizasi berish tartibi Arizachi sifatsiz ko'rsatilan xizmat uchun va mas'ul xodimning e'tiborsizligi ustidan qonun doirasida yuqori turuvchi tashkilotlarga shikoyat yuborish huquqiga ega.

Kadastr yig'ma jildini tayyorlash

Ko'chmas mulk obektlariga bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlar arizaga (shartnomaga) ilova qilinmasa, filial tomonidan kadastr yig'majildi tayyorlanmaydi.

Kadastr yig'majildi ko'chmas mulk obyektining geografik joylashuvi, huquqiy maqomi, miqdor, sifat tavsliflari va qiymati, shuningdek, uning holatidagi joriy o'zgarishlar haqidagi materiallar va ma'lumotlarni hamda ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni jamlash yo'li bilan filial kadastr muhandislari tomonidan tayyorlanadi hamda qog'oz va elektron shaklda filialning idoraviy kadastr arxivida doimiy saqlanadi.

Kadastr yig'majildi Kadastr agentligi direktorining "Kadastr yig'majildining muqovasi va tarkibidagi elektron axborot tizimida shakllanadigan ma'lumotlarning namunaviy jadvallari, qaydnomalari va blankalari shakllarini tasdiqlash haqida"gi 2022-yil 21-apreldagi 3 - 2022 - son (20.05.2022 yil ro'yxat raqami 3369 - son) buyrug'iga qat'iy rioya etgan holda tayyorlanadi.

Ko'chmas mulk obyektiiga tayyorlangan kadastr yig'majildi natijasi bo'yicha buyurtmachiga kadastr pasporti taqdim etiladi.

Buyurtmachining so'roviga ko'ra, filial tomonidan kadastr yig'majildining nusxasi elektron shaklda taqdim etiladi.

Filial tomonidan o'tkazilgan o'lchov ishlari natijasida tayyorlangan kadastr yig'majildi tarkibidagi ma'lumotlar to'g'rilingiga filial kadastr muhandislari javobgar hisoblanadi.

#### Kadastr yig'majildini tayyorlash jarayoni va shartlari

Buyurtmachining arizasi (keyingi o'rnlarda - buyurtma) axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda "DAVREYESTR AAT" maxsus axborot tizimi orqali filialga kelib tushadi va quyidagi bosqichlarda xodimlar tomonidan ko'rib chiqiladi va kadastr yig'majildi tayyorlanadi.

#### 1 - bosqich. Filial bosh muhandisi:

-buyurtma kelib tushgan kunda buyurtmaga ilova qilingan huquqni belgilovchi hujjatlar qaror talablarini bajarsa "DAVREYESTR AAT" orqali tanlov asosida filial kadastr muhandisi belgilanib, ijroga qaratadi yoki aksincha qaror talablariga zid keluvchi yoki taqdim etilgan hujjatlarda qarama - qarshiliklar mavjud bo'lsa rad etadi;

Izoh. Ko'chmas mulk obyektiga kadastr yig'majildini tayyorlash va kadastr pasportini rasmiylashtirishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

\*ko'chmas mulk obyektiga tegishli huquq belgilovchi hujjatlarning mavjud emasligi;

\*filialda ushbu ko'chmas mulk obyektining mansubligi masalasida nizolar borligidan dalolat beruvchi sud hujjatlarining mavjudligi;

\*vakolatli organ tomonidan ko'chmas mulk obyektiga taqiq yoki xatlov qo'yilganligi;

\*taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri, qarama - qarshi yoki buzilgan ma'lumotlar aniqlanishi;

\*filialda ushbu yer uchastkasi qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda olib qo'yilganligi haqidagi ma'lumotlarning mavjudligi;

\*yer uchastkasiga bo'lgan huquqlarning qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda bekor qilinganligi;

\*ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganligi;

\*ko'chmas mulk obyekti o'lchov ishlari olib borilishiga, shu jumladan, ko'chmas mulk obyektiga kirish imkoniy yo'qligi (foydalanib kelayotgan shaxslar tomonidan bino va inshootga, yer uchastkasiga kirishga qarshilik qilish).

#### 2 - bosqich. Filial kadastr muhandisi:

-qabul qilib olingen buyurtmaga asosan undagi huquqiy hujjatlarni tahlil qiladi, "Nextcloud" dasturidan foydalangan holda dastlabki tayyorlangan kadastr hujjatlar arxivini o'rganadi. Agar, "Nextcloud" da arxiv hujjatlari to'liq yoki sifatli yuklanmagan bo'lsa, filial arxivariusiga murojaat qilgan holda arxivdagagi kadastr hujjatlarini to'liq yuklashini talab qiladi;

Izoh. Birlamchi tayyorlanayotgan kadastr hujjatlari bundan mustasno.

-elektron ma'lumotlar bazasida obyekt to'g'risida ma'lumotlar mavjud yoki mavjud emasligini o'rganadi.

Izoh: Filial kadastr muhandislari kadastr yig'majidlari va pasportlarini shakllantirishda faqatgina "Nextcloud" dasturidagi arxiv hujjatlaridan foydalanadi.

#### 3 - bosqich. Filial arxivariusi:

-filial kadastr muhandislari talabi bo'yicha buyurtma kelib tushgan ko'chmas mulk obyekti bo'yicha arxiv hujjatlarini "Nextcloud" dasturiga yuklashdagi kamchiliklami tezkorlik bilan bartaraf qiladi.

-arxiv saqlovidagi kadastr yig'majidlarni kadastr muhandislarini qo'liga berish qat'yan taqiqlanadi.

Izoh: Arxiv saqlovidagi kadastr yig'majidlarning berilishiga zarurat bo'lgan taqdirda, faqatgina filial rahbari yoki filial bosh muhandisining yozma ruxsatnomasi asosida o'rnatilgan tartibda arxiv hujjatlarini topshirish - qabul qilish reyestr kitobiga qayd qilgan holda beriladi hamda belgilangan muddatda to'liq qaytarilishini talab qiladi.

#### 4 - bosqich. Filial kadastr muhandisi:

-obyektni joyida chiqqan holda xatlov o'tkazish.

-o'ziga berilgan login - parolidan foydalangan holda buyurtma bo'yicha kelib tushgan obyektning "Nextcloud" dasturidagi kadastr yig'majildidan foydalanib, o'lchov ishlari bajaradi.

Izoh:

- o'lchov ishlari o'tkaziladigan ko'chmas mulknini mulkdor bilan birgalikda to'liq ko'rib chiqadi, barcha yer, bino va inshootlarning joylashuvini, obyektning

chegaralarini geodezik asboblar yordamida (WGS - 84 koordinatalar tizimida) o'lchab, obyektning va uning ayrim qismalarining maydonini hisoblab, kadastr rejasiga tushiradi va imzosi bilan tasdiqlaydi;

- bino - inshootlarning tashqi va ichki o'lchamlarini to'liq o'lchaydi va konstruktiv materiallariga aniqlik kiritib, kadastr rejasiga yozadi;

- chegaradosh dalolatnomalarni rasmiylashtirgandan so'ng chegaradoshlarga aniqlik kiritib, mulkdor va chegaradoshlarga imzolatadi.

O'zining funksional vazifalarini bajarish jarayonida hushmuomala bo'lishi, vakolati doirasidan chetga chiqmasligi, biror - bir moddiy va moliyaviy manfaatdorlikni ko'zlamasligi, ta'magirlik qilmasligi, qonunchilikda belgilangan talablardan tashqari hujjatlar talab etmasligi lozim.

Filialga qaytgandan so'ng:

- kadastr rejasini 1:500 mashtabda shartli belgilarga muvofiq kompyuterda AUTOCAD yoki ArcGIS dasturi orqali chizadi;

- obyektning joylashgan joyi hamda yer uchastkasining chegaralari haqidagi ma'lumotlarni avtomatlashtirilgan kadastr ma'lumotlar geoportaliga kiritish uchun filial DKYaT mutaxassisiga elektron ko'rinishda beradi;

- barcha ma'lumotlarni umumlashtirgan holda belgilangan tartibda kadastr yig'majildini shakllantiradi.

5 - bosqich. "Ko'chmas mulk - 3" dasturida hisobga olinmagan (yangi), hisobdan chiqariladigan obektlar:

Ko'chmas mulk obyektiga birlamchi kadastr hujjat rasmiylashtirilayotgan yoki ma'lumotlarni bazasida ko'chmas mulk obyekti to'g'risida ma'lumot mavjud emasligi aniqlanadigan bo'lsa, belgilangan tartibda boshqarmaga murojaat qilish uchun namunaga muvofiq bildirgi tayyorlaydi.

Bildirgida quyidagi ma'lumotlar bo'lishi shart:

- Buyurtmachi tomonidan kadastr yig'majildi hamda uning natijasi bo'yicha kadastr pasportini rasmiylashtirish uchun berilgan ariza raqami;

- yangi ko'chmas mulk obyektiga beriladigan kadastr raqami yoki o'chirilishi kerak bo'lgan raqam (dasturda ketma - ketlik asosida avtomatik tarzda beriladi), manzili agar o'chiriladigan bo'lsa, o'chirilish sababi (to'liq ko'rsatilgan holda);

- obyekt joylashgan joyi (koordinatalari bilan), yer maydoni, toifasi, (kontur raqami - agar mavjud bo'lsa) va yer turi to'g'risida ma'lumot.

Bildirgiga obyektning barcha huquqiy asoslari ilova qilinadi;

Ushbu bildirgi filial boshlig'i, filial yer kadastriga va ma'lumotlar bazasiga mas'ul xodimlari hamda filial kadastr muhandisi tomonidan imzolanadi.

Rasmiylashtirilgan bildirgi filial kadastr muhandisi tomonidan ma'lumotlar bazasiga mas'ul va filial DKYaT mutaxassisiga taqdim etiladi.

6 - bosqich. Filial DKYaT mutaxassis:

-taqdim etilgan obyekt bo'yicha ma'lumotlami "ArcGIS" dasturiga kiritadi;

-oldindan kiritilgan obyekt to'g'risidagi ma'lumotlarni "ArcGIS" dasturi va "Ko'chmas mulk - 3" dasturidagi bir xillikni ta'minlaydi.

Eslatma: Obyekt to'g'risida "Ko'chmas mulk - 3" dasturida ma'lumotlar mavjud bo'limasa, o'lchov natijalari bo'yicha qilingan ishlarni (shu kunning o'zida (\*.shp) elektron formatidagi fayl ko'rinishida filial ma'lumotlar bazasiga mas'ul xodimga taqdim etadi.

7 - bosqich. Filial ma'lumotlar bazasiga mas'ul:

-yangi obyekt yaratish uchun filial kadastr muhandisi tomonidan shakllantirilgan namunadagi bildirgini hamda filial DKYaT mutaxassisidan obyektning (\*.shp) elektron formatidagi faylini "IS web servis"ga (o'sha kunning o'zidayoq) yuklaydi.

8 - bosqich. Boshqarma DKYaTga mas'ul xodimi:

-IS web servis orqali yangi obyekt yaratishga kelib tushgan arizalarni shu kunning o'zida (\*.shp) elektron formatidagi fayl ma'lumotlarini davlat kadastrlari yagona tizimiga kiritilgan davlat kadastrlari himoya va muhofaza tegra(zona)lari bilan solishtiradi.

-kadastr muhandisi tomonidan tayyorlangan bildirigidagi koordinatalar va (\*.shp) elektron formatidagi fayldagi koordinatalarni solishtiradi.

-taqdim etilgan ma'lumotlarda kamchiliklar aniqlansa, (shu kunning o'zida) bartaraf etish uchun filialga qaytaradi.

-taqdim etilgan ma'lumotlar to'g'ri bo'lsa, IS web servis orqali boshqarma davlat ro'yxatidan o'tkazuvchisiga o'tkazadi.

9- bosqich. Boshqarma davlat ro'yxatidan o'tkazuvchisi:

-IS web servis orqali taqdim etilgan huquq belgilovchi hujjatlar amaldagi qonunchilik talablariga to'g'ri kelishini ko'rib chiqadi, mos keladigan bo'lsa tasdiqlab, boshqarma ma'lumotlar bazasi mas'uliga o'tkazadi.

Izoh: Kamchiliklar aniqlansa yoki huquq belgilovchi hujjatlar amaldagi qonunchilik talablariga zid bo'lsa, asoslari ko'rsatgan holda rad etadi.

10 - bosqich. Boshqarma ma'lumotlar bazasiga mas'ul:

- IS web servis orqali taqdim etilgan bildirgida kadastr pasporti yaratish uchun kelib tushgan buyurtmani raqami bilan "DAVREYESTR" dasturida kelib tushgan yoki tushmaganligini tekshiradi.

a) Hududiy boshqarmalar orqali yaratilayotgan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha:

- huquqni belgilovchi hujjatlar kadastr raqamini yaratish uchun yetarli deb topsa, "Ko'chmas mulk - 3" dasturida yangi obyekt kadastr raqami va manzilini shakllantiradi.

- yangi yaratilgan obyektga bildirgida taqdim etilgan manzilni, qo'shimcha ma'lumotlar kiritish qatorida kadastr pasportini yaratish uchun kelgan ariza va shakllantirilgan sanasini yozadi.

- "Ko'chmas mulk - 3" dasturiga bildirgida berilgan koordinatalari kiritadi va IS web servis da ishni bajarilgani to'g'risida belgi qo'yadi.

- agar, bildirgida yoki obyektning huquq belgilovchi hujjatlarida kamchiliklar aniqlansa, asoslantiruvchi izoh bilan veb - servis orqali rad etadi.

b) Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati orqali yaratilayotgan ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha - ma'lumotlar ro'yxatini umumlashtirgan holda boshqarma boshlig'i va davlat ro'yxatdan o'tkazuvchisi tomonidan imzolangan Uslubiy

qo'llanmaning 2 - ilovasiga muvofiq namunadagi bildirgi asosida IS web servis orqali Davlat kadastrlari palatasiga yuboradi.

11 - bosqich. Filial ma'lumotlar bazasiga mas'ul:

-IS web servis orqali yangi ko'chmas mulk obyekti kadastr raqami hamda manzil berilganligi yoki rad etilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qiladi va shu vaqtning o'zidayoq kadastr muhandisiga xabar beradi.

12 - bosqich. Filial kadastr muhandisi:

-ma'lumotlar bazasida ko'chmas mulk obyekti yaratilgandan so'ng kadastr yig'majildi shakllantirish ishlarini yakunlaydi hamda uni imzolatish uchun filial bosh muhandisiga taqdim etadi.

13 - bosqich. Filial bosh muhandisi:

-filial kadastr muhandisi tomonidan yakunlangan kadastr yig'majildini ko'rib chiqib, kamchiliklar aniqlansa, bartaraf etish uchun kadastr muhandisiga qaytaradi;

-kamchiliklar aniqlanmagan yoki bartaraf etilgandan so'ng kadastr yig'majildini imzolaydi hamda ko'chmas mulk obyekti to'g'risidagi ma'lumotlarni DKYaT va "Ko'chmas mulk - 3" dasturlariga kiritish uchun mas'ullarga yo'naltiradi:

14 - bosqich. Filial ma'lumotlar bazasiga mas'ul:

-kadastr yig'majildi hamda kadastr pasporti bo'yicha ma'lumotlarni "Ko'chmas mulk - 3" dasturiga to'liq va sifatlari kiritib, bu haqda yig'majild muqovasiga muhr va imzosini qo'yadi hamda yig'majildni filial DKYaT mutaxassisiga beradi.

-"Ko'chmas mulk - 3" dasturini yuritadi va unga kiritilgan har bir ma'lumotga shaxsan javobgar hisoblanadi.

15 - bosqich. Filial DKYaT mutaxassis:

-kadastr yig'majildi ma'lumotlariga asosan har bir obyektning koordinatalari bo'yicha joyiga to'g'ri tushishi, chegaralarining haqqoniyligi o'rganadi va DKYaT bazasiga sifatlari kiritib, bu haqda yig'majild muqovasiga muhr va imzosini qo'yadi hamda yig'majildni filial bosh muhandisiga taqdim etadi.

-taqdim etilgan ma'lumotlarning (\*.shp) elektron formatidagi faylini jamlagan holda DKYaT ma'lumotlarini shakllantirib boradi.

16 - bosqich. Filial bosh muhandisi:

-yig'majildni muqovasiga obyekt ma'lumotlari DKYaT va "Ko'chmas mulk - 3" dasturlariga kiritilganligi to'g'risida tomonidan mas'ullar muhr va imzosi bilan tasdiqlangandan so'ng filial boshlig'iga tekshirish uchun topshiradi.

17 - bosqich. Filial boshlig'i:

-tayyorlagan kadastr yig'majildini ko'rib chiqib, kamchiliklar aniqlansa, bartaraf etish uchun bosh muhandisiga qaytaradi;

-kamchiliklar aniqlanmagan yoki bartaraf etilgandan so'ng kadastr yig'majildini imzolaydi va elektron kadastr pasportini tayyorlash uchun mas'ul filial kadastr muhandisiga topshiradi;

-kadastr yig'majildi va kadastr pasportining belgilangan talablarga asosan shakllantirilishi, ma'lumotlar bazasiga kiritilishi, belgilangan tartibda arxivga topshirilishini to'liq nazorat qiladi.

18 - bosqich. Filial kadastr muhandisi:

-kadastr yig'majildi shakllantirilib, imzolanganidan so'ng, obyektning elektron kadastr pasportini tayyorlaydi.

-belgilangan talablarga asosan kadastr pasporti rasmiylashtirish uchun kelib tushgan buyurtmada ko'chmas mulk obyekti to'g'risida (obyekt manzili, yer uchastkasi tavsifi, binolar va inshootlar tavsifi, ko'chmas mulk obyektining qiymati) ma'lumotlami to'ldiradi va tekshirish uchun axborot tizimi orqali filial bosh muhandisiga kiritadi.

19 - bosqich. Filial bosh muhandisi:

-kadastr muhandisi tomonidan kadastr yig'majildiga asosan rasmiylashtirilgan kadastr pasportini hamda obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar bazaga kiritilganligini tekshiradi;

-barcha ma'lumotlar to'g'ri kiritilgan va shakllantirilgan bo'lsa, kadastr pasportini elektron tarzda imzolaydi hamda axborot tizimi orqali to'lovga yuboradi (to'lov miqdori ko'chmas mulk obyektning binolar va inshootlari o'chov maydonidan kelib chiqqan holda avtomatik ravishda belgilanadi).

-ma'lumotlar dasturga kiritilgandan so'ng, kadastr yig'majildini filial arxivariusiga topshiradi.

20 - bosqich. Arxivarius:

-ko'chmas mulk obyektiга rasmiylashtirilgan kadastr yig'ma jildlarini to'liq va sifatlari skaner qilib, "Next cloud" dasturiga yuklaydi hamda qog'oz shaklini arxiv saqlovga oladi.

-har bir arxiv hujjatlarini "Next cloud" dasturiga to'liq va sifatlari yuklanishi va qog'oz shaklidagi hujjatlami saqlanishiga javobgar hisoblanadi.

-arxivga hujjatlarni qabul qilib olish, saqlash, vaqtincha foydalanish uchun berishda arxiv ishini yuritish bo'yicha tasdiqlangan tartibga amal qilgan holda olib boradi.

21 - bosqich. Filial DKYaT mutaxassis:

-shakllantirilgan kadastr yig'majildiga asosan ko'chmas mulk obyektning DKYaT ma'lumotlami Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22 - iyundagi 389 - sonli qaroriga asosan fazoviy koordinatalar yagona tizimi (WGS - 84) qo'llash orqali shakllantiriladi,

-filial tomonidan shakllantirilgan DKYaT ma'lumotlarini "Next cloud FTP" web servis orqali boshqarma va Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparatiga tezkorlik bilan taqdim etadi.

Ma'lumotlami shakllantirish va taqdim etish:

-"Next cloud FTP" web servisda o'zlariga tegishli bo'lgan hududlarga kirib, ma'lumotlami yuklash va yuklab olish uchun berilgan login - parollardan foydalangan holda amalga oshiriladi;

- taqdim etilayotgan ma'lumotlar "ArcGIS" dasturidan foydalilanigan holda (\*.mdb) elektron formatida shakllantiriladi;

-umumiy bazada kun davomida bajarilgan ishlari har kuni ish vaqtiga so'ngida filial DKYaT mutaxassisini tomonidan "Next cloud FTP" web servisiga yuklanadi.

Eslatma: Filial DKYaT mutaxassisini kadastr yig'majildi ma'lumotlariga asosan har bir obyektning koordinatalari bo'yicha joyiga to'g'ri tushishi, chegaralarining haqqoniyligi, binolar - inshootlarning to'liq chizilishi va atributiv ma'lumotlari to'liq bo'lishiga javobgar hisoblanadi.

Amalga oshiriladigan ishlari quyidagi muddatlarda:

1 - 3 bosqichlar - buyurtma kelib tushgan kun;

4 - bosqich - turar joy obyektlari 2 kun muddatda, noturar joy obyektlariningning maydoniga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-iyundagi 389-sonli qarorining 8 - bandida belgilangan muddatlar tugashidan 2 kun oldin;

5 - 11 bosqichlar - o‘lchov ishlari amalga oshirilgandan so‘ng 1 kun;

12 - 21 bosqichlar - turar joy obyektlari bir kun muddatda, noturar joy obyektlariningning maydoniga qarab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 - yil 22 -iyundagi 389 - sonli qarorining 8 -bandida belgilangan muddatlar tugashidan 1 kun oldin amalga oshirilishi lozim.

Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati orqali yaratilayotgan ko‘chmas mulk obyektlari bo‘yicha - yangi ko‘chmas mulk obyektlariga kadastr raqamlarini va manzil berish ishlari Davlat kadastrlari palatasining markaziy apparati tomonidan bir kun muddatda quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- IS web servis orqali hududiy boshqarma tomonidan taqdim etilgan bildirgida kadastr pasporti yaratish uchun kelib tushgan buyurtmani raqami bilan “Davreyestr” dasturida kelib tushgan yoki tushmaganligini tekshiradi;
- hududiy boshqarmaning bildirisida ko‘rsatilgan obyektning koordinatalari va (\*.shp) elektron formatidagi fayldagi koordinatalari solishtiradi;
- huquqni belgilovchi hujjatlar amaldagi qonunchilik talaballariga to‘g‘ri kelsa, bildirgida ko‘rsatilgan yangi obyekt kadastr raqami va manzilini “Ko‘chmas mulk - 3” dasturida shakllantiradi;
- yangi yaratilgan obyektga bildirgida taqdim etilgan manzilni, qo‘srimcha ma’lumotlar kiritish qatorida kadastr pasportini yaratish uchun kelgan ariza va shakllantirilgan sanasini yozadi;
- “Ko‘chmas mulk - 3” dasturiga bildirgida berilgan koordinatalarini kiritadi va IS web servisda ishni bajarilgani to‘g‘risida belgi qo‘yadi.

Eslatma: Bildirgida yoki obyektning huquq belgilovchi hujjatlarida kamchiliklar aniqlansa, asoslantiruvchi izoh bilan veb - servis orqali rad etilishini tavsiya qildi.

Nazorat va javobgarlik

Filial kadastr muhandislari oy davomida shakllantirilgan kadastr pasportidan kelib chiqib, oylik ish haqlari hisoblanishida ushbu obyektlarning ma’lumotlari DKYaT va “Ko‘chmas mulk - 3” dasturiga to‘liq kiritilganligi mas’ullar tomonidan tasdiqlangandan so‘ng amalga oshiriladi.

Filialda ma’lumotlari DKYaT va “Ko‘chmas mulk - 3” dasturiga to‘liq kiritilganligi mas’ullar tomonidan tasdiqlanmasdan kadastr pasporti shakllantirilgan holatlar aniqlangan taqdirda, filial boshlig‘i, bosh muhandisiga tegishli chora ko‘rilishiga asos bo‘ladi.

Davlat kadastrlari palatasi markaziy apparati va hududiy boshqarmalarining Binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritish bo‘limi tomonidan kadastr pasportini shakllantirish uchun kelayotgan kunlik buyurtmalar bo‘yicha quyidagilar monitoring qilib boriladi:

- yangi kelgan arizalarni filial bosh muhandisi tomonidan filial kadastr muhandislariiga biriktirilishi;
- filial kadastr muhandislari tomonidan arizalarni tasdiqlangan Uslubiy qo‘llanmaga asosan belgilangan muddatlarda ijro etilishi;
- yakunlangan arizalarni to‘lovga yuborilishi;
- kadastr yig‘majild va pasportlarini ushbu Uslubiy qo‘llanmadagi bosqichlariga asosan o‘z muddatida va sifatli shakllantirilishi;
- arizalarni asossiz rad etish holatlari.

Dasturda ko‘chmas mulk obyektini yangi yaratish jarayoni filialning ushbu Uslubiy qo‘llanmaga ilova qilingan shakldagi tasdiqlangan bildirisiga asosan hududiy boshqarmalar tomonidan amalga oshiriladi.

Dasturda yangi ko‘chmas mulk obyektini yaratish, hisobdan chiqarish yoki manzilini o‘zgartirish, shuningdek, DKYaT ma’lumotlari bazasini shakllantirish uchun barcha hujjat va ma’lumotlar faqatgina “IS web servis” va “Next cloud FTP” web servislari orqali amalga oshiriladi.

Boshqa portallar, elektron pochtalar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali hujjat va ma’lumotlar almashish (tarqatish) qat‘iy taqilanganadi.

(Давлат кадастрлари палатаси филиали номи ёки кадастр мухандисининг фамилияси, исми, отасининг исми)

**КҮЛ КВАРТИРАЛИ УЙДАГИ ТУРАР ЖОЙНИНГ КАДАСТР ПАСПОРТИ** (кадастр йигмажилдан кўчирма)

Кадастр паспорти берилган сана	Сана
	Рақами

**I. Манзил хақида маълумотлар**

Кадастр рақами	
Жойлашган жойи	

**II. Объект тавсифи**

Бинонинг каватлар сони	
Жойлашган кавати	
Умумий фойдали, ( $m^2$ )	
Яшаш майдони, ( $m^2$ )	
Жами хоналар сони	
Яшаш хоналари сони	
Кадастр киймати, (сўм)	
Баҳолаш санаси	
Кўшимча маълумотлар	

(ижрочи лавозими)

(Ф.И.О.)

Объект бўйича кўшимча маълумотларни «davreyestr.uz» веб-сайти орқали олиш имконияти мавжуд.

(Давлат кадастрлари палатаси филиали номи ёки кадастр мухандисининг фамилияси, исми, отасининг исми)

**ЯККА ТАРТИБДАГИ ТУРАР ЖОЙНИНГ**

**КАДАСТР ПАСПОРТИ**

(кадастр йигмажилдан кўчирма)

Кадастр йигмажилди шакллантирилган сана	Сана
	Рақами

**I. Манзил хақида маълумотлар**

Ер участкасининг кадастр рақами	
Жойлашган жойи	

**II. Ер участкаси тавсифи**

Ер майдони, ( $m^2$ )	Хукукӣ хужжатга асосан
	Амалда
Фойдаланиш мақсади	Ўзбошимчалик билан эгалланган
	Хужжат бўйича
Ер участкаси баҳоси (сўм)	Амалда
	Сервитут хақида маълумот
Кўп йиллик дараҳтлар сони	

**III. Бинолар ва иншоотлар тавсифи**

Бино ва иншоотнинг номи	Кадастр рақами	Бинолар сони	Умумий курилиш ости майдони ( $m^2$ )	Умумий фойдаланиш майдони ( $m^2$ )	Фойдали майдони (яшаш майдони), ( $m^2$ )
	жами				

**Ўзбошимчалик билан қурилган иморатлар**

жами			
Кадастр киймати (сўм)			
Баҳолаш санаси			
Кўшимча маълумотлар			

(ижрочи лавозими)

(Ф.И.О.)

(Давлат кадастрлари палатаси филиали номи ёки кадастр мухандисининг фамилияси, исми, отасининг исми)

**ЕР УЧАСТКАСИННИГ**

**КАДАСТР ПАСПОРТИ**

(кадастр йигмажилдидан кўчирма)

Кадастр йигмажилди шакиллантирилган сана	
Кадастр паспорти берилган	Сана
	Рақами

**I. Манзиз ҳақида маълумотлар**

Ер участкасининг кадастр рақами	
Жойлашган жойи	

**II. Ер участкаси тасвиғи**

Ер майдони, ( $m^2$ )	Хукукий хужжатга асосан	
	Амалда	
	Ўзбошимчалик билан эгалланган	
Фойдаланиш максади	Хужжат бўйича	
	Амалда	
Сервитут ҳақида маълумот		
Ер участкаси баҳоси (сўм)		
Кўп йиллик дарахтлар сони		

(иқрочи лавозими)

(Ф.И.О.)

Объект бўйича кўшимча маълумотларни «davreyestr.uz» веб-сайти оркали олиш имконияти мавжуд.

НАМУНА

**Ер участкаси чегараларини аниқлаш ва келишини  
ДАЛОЛАТНОМАСИ**

20\_\_ йил «\_\_» \_\_\_\_\_ тумани (шаҳри)

